

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA SPORT
ISHLARI VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN‘AT VA MADANIYAT INSTITUTI
“Pedagogika va psixologiya” kafedrası
“5111000-Kasb ta’limi” yo‘nalishi**

DAK raisi

_____ **S.K.Annamuratova**

“_____” _____ **2014y.**

Kafedra mudiri

_____ **Z.H.Qosimova**

“_____” _____ **2014y.**

BITIRUV MALAKAVIY ISH

**Mavzu: Xotin-qizlar faoliyatini takomillashtirishda pedagogik
va kommunikatsion texnologiyalarining o‘rni**

Bajardi:4-kurs talabasi Z. Omonova

Ilmiy rahbar: T.f.d. prof. B.Sh.Rajabov

**Mazkur bitiruv malakaviy ishi kafedraning 2014 yil _____dagi
____sonli yig‘ilishida muhokama qilingan va himoyaga tavsiya etilgan.**

TOSHKENT – 2014

Mundarija

Kirish	3
I BOB JAMIYATNI IJTIMOY RIVOJLANTIRISHDA XOTIN – QIZLARNING O’RNI MASALASINI O’RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI	
I.1. O’zbekistonda xotin-qizlar masalasiga doir islohotlarning umumiy tavsifi va jamiyat rivojiga ta’siri.....	6
I.2. Ijtimoiy jarayonlarda xotin-qizlar ishtirokini faollashtirish yo’llari.....	15
II BOB JAMIYAT TARAQQIYOTIDA XOTIN-QIZLAR ISHTIROKINI MONITORINGINI AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TASHKIL ETISH	
II.1. Jamiyatning ijtimoiy rivojlanishida axborot kommunikatsion texnologiyalarining o’rni.....	39
II.2. Xotin-qizlar faoliyatini takomillashtirishda pedagogik va kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish.....	45
XULOSA	55
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI	60
ILOVALAR	65

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Jamiyat rivojlanishida xotin-qizlar faoliyati muhim ahamiyatga ega. Xotin-qizlar jamiyatdagi barcha jabhalarda faol qatnashadi va ularning o'zaro hamkorligini ta'minlashda pedagogik va kommunikatsion texnologiyalar zarur. Demak, xotin-qizlar faoliyatini zamonaviy darajada shakllantirishda ularni pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalarini qo'llanishi zarurdir. Mamlakatimizning barcha viloyat-tumanlarida va ayniqsa chekka hududlarida istiqomat qiluvchi xotin-qizlarning jamiyatimiz rivojining faol ishtirokini ta'minlash maqsadida pedagogik va kommunikatsion texnologiyalar imkoniyatida foydalanish maqsadga muvofiqdir. Hukumatimiz tomonidan ayollarimizni jamiyatda rolini yanada faollashtirish hamda takomillashtirish yo'lida turli qaror va farmonlar ishlab chiqilishiga qaramasdan, ularning ijrosida ba'zi sustkashliklar ko'zga tashlanadi. Shunga asosan bitiruv malakaviy ishida qo'yilgan mavzu dolzarb hisoblanadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi: Jamiyat rivojlanishida xotin-qizlar faoliyatini o'rganishga bag'ishlangan bir necha ilmiy ishlar amalga oshirilgan. "O'zbekistonda ayollar ijtimoiy-siyosiy mavqeyining mustahkamlanishi" M.Q. G'afforova. Jumladan, Falsafa va ijtimoiy-siyosiy fanlar nuqtai-nazaridan olib qaraganda jamiyat hayotida ayollarning tutgan o'rni haqidagi dastlabki ilmiy izlanishlar horijiy G'arb tadqiqotlarida keng ko'lamda tadqiq qilingan. Jumladan, ayollar siyosiy faolligini konstruktiv paradigma nuqtai-nazaridan tadqiq etgan olimlar qatoriga R.Konnella, P.Burde, J.Skott, V.Spayk Peterson, O.A.Voronina, O.V.Ryabovalarni kiritish mumkin¹. Siyosiy hokimiyatda ayollar ishtiroki, ayollarning siyosiy faolligiga oid tadqiqotlar M.Fuko, P.Burde, E.Giddens, M.V.Ilin, A.YU.Melvil, V.G.Ledyaev, R.Djenkins, P. dyu Priz, G.Tedjfel, A.P.CHudinov, A.N.Baranov va YU.N.Karaulov, A.V.Kirilina, K.Kon, X.Xaste, I.Goffman, M.L.Makarov, S.G.Klimova, S.F.Lisovskiy, T.N.Piuceva, G.G.Pochepsova, E.B.Shestopal, T.V.YAkusheva,

¹Connell R. W. Gender. Cambridge; Malden, MA, 2002; Connell R. W. Gender and Power: Society, the Person and Sexual Politics. Cambr., 1987;

Dj.Berger, M.Yorgensen, M.Pikering, E.Said, X.BaBy, L.Filips, S.Xoll kabi olimlar tomonidan o'rganilgan².

Ayollar siyosiy faolligini gender tamoyillari asosida o'rganigan olimlar qatoriga O.A.Xasbulatova, K.F.Kann, S.G.Ayvazova, N.V.Dosina, V.G.Ushakova, T.V.Barchunova, E.S.Gritsenko, E.R.YArskaya - Smirnova, O.A.Voronina, E.A.Zdravomislova, E.V.Kochkina, L.N.Popkova, O.G.Ovcharova, Z.M.Saraliev, N.L.Stepanova, A.A.Temkina, N.A.SHvedova, L.T.SHineleva, I.I.YUKina, A.Srebryan, L.Van Zunen, K.Uoll-Yorgensenlarni kiritish mumkin³. Shunga qaramasdan jamiyat rivojlanishida xotin-qizlar faoliyatini o'rganishga sohasida yetarlicha ishlar bajarilmagan.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi: jamiyat rivojlanishida xotin-qizlar faoliyati muhim ahamiyatga ega. Xotin-qizlarning jamiyatning ijtimoiy, siyosiy va boshqa yo'nalishlardagi faoliyati bevosita pedagogik va kommunikatsion texnologiyalar bilan bog'liq. Bitiruv malakaviy ishda xotin-qizlar faoliyatini takomillashtirishda pedagogik va kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish mexanizmi maqsad qilib olingan.

Bitiruv malakaviy ishining obekti: bitiruv malakaviy ishining ob'ekti sifatida jamiyatning rivojlanish bosqichlari va xotin-qizlar faoliyatini ta'minlovchi huquqiy, tashkiliy holatlar qabul qilingan.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti: bitiruv malakaviy ishining predmeti sifatida jamiyatning rivojlanishida xotin-qizlar faoliyatini ta'minlovchi qonunlar, usullar va tamoyillar qabul qilingan.

Bitiruv malakaviy ishining vazifasi:

✓ Jamiyatning ijtimoiy rivojlanishida xotin-qizlar masalasini har tomonlama, ya'ni nazariy va amaliy jihatdan o'rganish;

² Фуко М. Воля к истине: По ту сторону знания. Работы разных лет. М., 1996; Бурдьё П. Начала. М., 1994;

³ Хасбулатова О. А. Гендерные стереотипы в политической культуре: Специфика российского опыта // Женщина в российском обществе. 2001.

✓ Jamiyat taraqqiyotida xotin-qizlar monitoringini pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalari asosida tashkil qilishning uslubiyotini ishlab chiqiladi.

Bitiruv malakaviy ishining metodlari:jamiyatning zamonaviy taraqqiyot bosqichida xotin-qizlar faoliyatini samarali tashkil qilish metodlari, normativ hujjatlar, pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish usullari, sotsial tarmoqlaridagi axborotlardan to'liq foydalanishni ta'minlash asosini beradi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy ahamiyati:bitiruv malakaviy ishning nazariy ahamiyati shundaki, jamiyatni rivojlanishida xotin-qizlarning faoliyatini ta'minlovchi normativ huquqiy, statistik va tahliliy ma'lumotlar va bilimlar majmuasi shakllangan.

Bitiruv malakaviy ishining uslubiy ahamiyati: bitiruv malakaviy ishning uslubiy ahamiyati shundaki, unda jamiyat rivojlanishida xotin-qizlarning faoliyatini samarasini ko'taruvchi yo'l-yoriqlari ishlab chiqilgan.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati:bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan nazariy va uslubiy holatlarni amaliyotga joriy etilishi jamiyat rivojlanishida xotin-qizlarning rolini demokratik tamoyillar asosida oshishini ta'minlaydi.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi va hajmi: Kirish, 2 bob, 4 paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatiga ilovalardan iborat.

1.BOB. JAMIYATNI IJTIMOYIY RIVOJLANTIRISHDA XOTIN – QIZLARING O‘RNI MASALASINI O‘RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1 O‘zbekistonda xotin-qizlar masalasiga doir islohotlarning umumiy tavsifi va jamiyat rivojiga ta’siri

“Ayollarni ulug‘lab, ardoqlab, boshiga ko‘tarib yashaydigan xalq o‘zining yuksak madaniyati va olijanob qadriyatlarini amalda namoyon qiladigan va tasdiqlaydigan xalq sifatida obro‘-e’tibor qozonadi”⁴

I.A. Karimov.

Azal-azaldan Sharq xalqlarida, xususan, o‘zbek xalqida ayolni e‘zozlash, ehtirom ko‘rsatish eng olijanob fazilatlardan biri sanalgan. Shuning uchun ham mustaqilligimizning ilk kunlaridanoq Prezidentimiz rahnamoligida xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni va nufuzini mustahkamlash, ularning haq-huquq hamda manfaatlarini himoya qilish borasida qator xayrli ishlar amalga oshirilgani tahsinga sazovordir. Mustaqillik yillarida xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni va mavqeini ko‘tarish, ularning hurmatini joyiga qo‘yish, manfaatini himoyalash, mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash davlatimizning, jamiyatimizning ustuvor yo‘nalishi va maqsadlaridan biriga aylandi. Shu bois, xotin-qizlarga munosabat masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 yil 2 martdagi «O‘zbekiston Respublikasi davlat va ijtimoiy qurilishida xotin-qizlarning rolini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni, 1998 yilning «Oila yili», 1999 yilning «Ayollar yili» deb e‘lon qilinishi, 1999 yil 17 martdagi «Xotin-qizlarning

⁴Manba: www.darakchi.uz .O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-03-09 O‘zbekiston xotin-qizlariga 8 marttabrigidan.


ijtimoiy muhofazasini kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmon va qaror hamda qonunlar fikrimizning dalilidir.

Davlatchiligimizning rivojlanishidagi ustuvor yo'nalishlardan biri shaxsning ijtimoiy va siyosiy, binobarin, huquqiy faolligini ta'minlashdir. Jamiyatning ma'naviy va ahloqiy yetukligi darajasi hamisha xotin-qizlarga bo'lgan munosabat bilan belgilanib keldi. Xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqei, ularning davlat va jamiyat ishlarida faol ishtirok etishi bilan islohotlarning muvaffaqiyatli kechishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. O'zbekistonda mustaqillik yillarida aholi sog'lig'ini, jumladan, ona va bola salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlash, sog'lom naslni voyaga yetkazish, bu borada yagona milliy tizimni yaratish, tibbiyot sohasini tubdan isloh qilish yo'lida bosqichma-bosqich islohotlar amalga oshirilmoqda. Joylarda reproduktiv salomatlik va perinatal markazlar ochilib, ayollarga ko'plab ijtimoiy imtiyozlar joriy qilindi. Ana shunday chora-tadbirlar tufayli ayollarimiz bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning, davlat va jamiyatda kechayotgan hayotbaxsh bunyodkor o'zgarishlarning faol ishtirokchisiga aylandilar. Milliy saylov tizimida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faoligi ularning davlat va jamiyat qurilishi sohasidagi mavqeini oshirishda ham boshqa mamlakatlar saylov tizimidan ajralib turadi. Negaki, siyosiy partiyalardan ko'rsatiladigan deputatlikka nomzodlarning kamida 30 foizini ayollar tashkil etishi shart ekani to'g'risidagi norma qonun bilan belgilandi. Prezidentimiz rahnamoligida xotin-qizlarning davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida ishtirokini ta'minlash, farzand tarbiyasi, oiladagi mas'uliyatini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilayotgani samarasida deputatlar, korxonalar va tashkilot, fermer xo'jaliklari rahbarlari, ilm-fan namoyandalari orasida xotin-qizlar safi tobora kengayib bormoqda.

Mamlakatimizda ayollar bandligi quyidagi ko'rinishga ega:

- sanoatda – 42,4%;
- qishloq xo'jaligida – 52,6%;
- fan, ta'lim, madaniyat sohalarida – 75,3%;
- sog'liqni saqlash, s'ort, ijtimoiy muhofaza sohalarida – 75,3%;


- fermer xo‘jaliklar rahbarlari – 10%;
- kasaba uyushmalari kengashlari rahbarlari – 42,2%;
- fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari raislari – 25%.



Ayollarning jamiyatdagi mavqeini mustahkamlash tadbirlari, ijtimoiy hayotda ayollar va erkaklar o‘rtasidagi farqni kamaytirish borasida sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Jamiyatda ayollarning ijtimoiy faolligini ta‘minlash, ayollar haq- huquqlarining poymol bo‘lmasligini nazorat qilish yuzasidan turli jamoat tashkilotlari tomonidan qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunga kelib, muayyan nodavlat notijorat tashkilotlar va ijtimoiy harakatlar aynan ayollar va xotin-qizlar manfaatini himoya qilish, ularning aqliy va jismoniy qobiliyatlarini to‘liq ochib berish borasida faoliyat olib bormoqda. Bu borada bajarilgan ishlar, qo‘lga kiritilgan yutuqlar haqida quyida keltirilgan ma‘lumotlarga murojaat etish mumkin. Jumladan, bugungi kunda xotin-qizlar masalalari bilan shug‘ullanadigan

nodavlat notijorat tashkilotlar 158 tani tashkil etadi. Ular quyidagi masalalar bo'yicha faoliyat olib bormoqda:

- ijtimoiy- siyosiy faollikni oshirish (37%);
- tadbirkorlik va hunarmandchilikka keng jalb etish (18%);
- ijtimoiy himoyalash (15%);
- sog'lom turmush tarzini targ'ib etish (11%).



2004 yil 25 mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida»gi PF-3434-sonli Farmoni e'lon qilindi. Farmonga ko'ra O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasining, respublika Xotin-qizlar jamoat tashkilotlarining ayollar huquqlarini himoya qilish, ularning mamlakatimiz siyosiy-ijtimoiy, sotsial-iqtisodiy va madaniy hayotida to'laqonli ishtirok etishini ta'minlash, xotin-qizlar hamda yoshlarning ma'naviy va intellektual saviyasini yuksaltirish borasida olib borayotgan ishlarining samaradorligini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Farmonning 2 bandida eng muhim va asosiy vazifa qilib quyidagilar belgilanadi: Xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, ayollarni kasbiy,

jismoniy, ma'naviy va intellektual saviyasini yuksaltirish, ularning sotsial, ijtimoiy-siyosiy faolligini davlat qurilishi sohasidagi faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan umummilliy siyosatni ro'yobga chiqarish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish va uni amalga oshirish; ularni ish bilan ta'minlash masalalari; xotin-qizlarning nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish va ular bilan samarali hamkorlikni ta'minlash va boshqalar.

Ushbu Farmonning ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari dasturi to'g'risida 2004 yil 29 iyunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori chiqadi. Ushbu qarorda o'tgan davrlar ichida mavjud masala bo'yicha olib borilgan ish va tadbirlardagi kamchilik va xatolar keskin masala sifatida o'rta tashlanadi. Jumladan, ayollarning muayyan qismi, ayniqsa qishloq joylarda, xotin-qizlar qo'mitalarining e'tiboridan chetda qolmoqda, ular o'z holiga tashlab qo'yilgan va shu bois turli, jumladan, buzg'unchi kuchlarning ta'sir ob'ektiga aylanmoqda. Yoki, xotin-qizlar qo'mitalarining faoliyati, eng avvalo, xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash muammosini hal etishga, shu jumladan, vaqtinchalik ish o'rinlari barpo etish, kasanachilik mehnatini tashkil etish va xotin-qizlarni ishga joylashtirishning boshqa shakllaridan foydalanishga qaratilishi zarur. Davlat tomonidan ko'rsatilayotgan moddiy va boshqa yordamlar bilan birga xotin-qizlarga ishlash uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish darkor.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 25 maydagi "O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-3434-sonli Farmonining ijrosini tahminlash, O'zbekiston Respublikasining "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi Qonunining, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga, rag'batlantirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish, mamlakatimiz hududlarida keng ko'lamli tushuntirish ishlarini olib borish, xotin-qizlar bandligini oshirish, ular o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish, qishloq joylarda ularning ish bilan bandligini ta'minlash borasidagi ishlarni yanada jadallashtirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo'mitasi,

O'zbekiston Savdo – sanoat palatasi, O'zbekiston Respublikasi Adliya hamda Mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish vazirliklari, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, O'zbekiston Respublikasi xalq ustalari, hunarmandlari, musavvirlari "Hunarmand" uyushmasi tomonidan qo'shma farmoyish qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi aholisining 50,0 foizini, iqtisodiy faol aholining 47,8 foizini tashkil etgan ayollarning ijtimoiy hayotdagi o'rni, mavqei, faollik darajasi, ma'naviy, tarixiy qadriyatlarni o'zlashtirish va yangi qadriyatlarni shakllantirishdagi roli jamiyat taraqqiyotini belgilovchi eng muhim omillardan biridir. Chunki, O'zbekiston mustaqillik tufayli bozor munosabatlariga asoslangan huquqiy davlat va demokratik, fuqarolik jamiyatini qurish sari ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalaridagi amalga oshirilayotgan islohotlar orqali ildam odimlamoqda. O'zbekistonda mustaqillik yillarida aholi sog'lig'ini, jumladan, ona va bola salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlash, sog'lom naslni voyaga yetkazish, bu borada yagona milliy tizimni yaratish, tibbiyot sohasini tubdan isloh qilish yo'lida bosqichma-bosqich islohotlar amalga oshirilmoqda. Joylarda reproduktiv salomatlik va perinatal markazlar ochilib, ayollarga ko'plab ijtimoiy imtiyozlar joriy qilindi. Ana shunday chora-tadbirlar tufayli ayollarimiz bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning, davlat va jamiyatda kechayotgan hayotbaxsh bunyodkor o'zgarishlarning faol ishtirokchisiga aylandilar.

1999 yil 10 iyundagi PF-2326-sonli "Zulfiya" nomidagi davlat mukofotini ta'sis etish bo'yicha takliflarni qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Prezident farmonida ayolni muqaddas bilish, unga alohida ehtirom ko'rsatish, ozod va obod yurtimiz kelajagi bo'lgan har tomonlama yetuk yoshlarni tarbiyalashdagi beqiyos o'rnini yana bir bor e'tirof etish, barkamol, oqila xotin-qizlar avlodini voyaga yetkazish, ular orasidagi iqtidorli yoshlarning adabiyot, san'at, fan va madaniyatni rivojlantirishdagi yutuqlari, tengdoshlarining milliy istiqloq g'oyalari va madaniy-ma'naviy qadriyatlarga e'tiqodining yuksalishi yo'lidagi ibratli faoliyati, keng ko'lamlil islohotlarni jadallashtirishdagi faol ishtirokini

rag‘batlantirish borasida ko‘p vazifalar bajarilishi ko‘zda tutilgan.⁵Zero, bugungi kunning ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va siyosiy muammolarini haqiqiy mahnaviyat egasi bo‘lgan insonlar hal qilar ekan, bu borada mamlakat aholisining yarmidan ko‘prog‘ini tashkil etgan xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish talab etiladi.

Ayol ma‘naviyati, axloqi hayotimizni, turmush tarzimizni bezaydi. U, eng avvalo, o‘z uyida faol bo‘lishi, farzand tarbiyasiga alohida e‘tibor qaratishi lozim. Yurtboshimiz har bir chiqishida mamlakatimizda bugungi kunda erishilgan yutuqlarda ayollarning ishtirokini alohida ta‘kidlaydi. Darhaqiqat, xotin-qizlarning barcha sohalarda faolligi kuchayishidan butun jamiyat manfaatdor bo‘ladi. Shunday ekan birinchi navbatda xotin-qizlarni ish bilan ta‘minlash masalasida qanot faollari va deputatlar shunga aloqador boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirsa, bu o‘z-o‘zidan ko‘p muammolar yechim topishiga zamin yaratadi.

Mamlakatimiz aholisining 50 %dan ziyodini tashkil etadigan xotin-qizlarga e‘tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, ayol zotini e‘zozlash, ularning huquq va manfaatlarini ta‘minlash, oila va jamiyat hayotidagi nufuzini oshirish, iste‘dod va qobiliyatini ro‘yobga chiqarish, opa-singillarimizning og‘irini yengil qilish, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, ayniqsa, qiz bolalarning zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallab, hayotda munosib o‘rin olishi borasida qabul qilingan qonunlar, Prezidentimizning farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Hayot davomiyligining asosi bo‘lgan ayolni, naslimiz davomchisi bo‘lmish farzandlarimiz salomatligini asrash – bu millatni, xalqni va ertangi kunni asrashdir. Farzandga, oila va jamiyat tayanchi, sog‘lom, barkamol avlodni dunyoga keltiruvchi hamda tarbiyalovchi ayolga mehr-e‘tirom ko‘rsatish xalqimizning azaliy qadriyatlaridan biridir. Istiqlol yillarida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar jarayonida bu boradagi ezgu an‘ana va urf-odatlarimiz yangicha ma‘no va mazmun bilan boyib bormoqda. Buning misoli sifatida poytaxtimizdagi “Ma‘rifat markazi” saroyida 2011 yil 26 noyabrda o‘tkazilgan “Sog‘lom ona – sog‘lom bola” mavzuidagi xalqaro simfoziumni keltirib o‘tish mumkin. Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi

⁵O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999 yil 10 iyun, PF-2326-sonli Farmoni.

bilan tashkil etilgan mazkur xalqaro anjumanda O'zbekiston Res'ublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, BMTning Bolalar jamg'armasi (YuNISEF) hamda boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlar rahbarlari va vakillari, AQSh, Xitoy, Rossiya, Kanada, Angliya, Germaniya, Italiya, Is'aniya, Frantsiya, Finlyandiya, Shveysariya, Chexiya, Daniya, Janubiy Koreya kabi qirqaqa yaqin mamlakatdan sog'liqni saqlash vazirliklari rahbarlari, tibbiyot sohasida jahonda tan olingan mashhur olimlar, xalqaro ekspert va tahlilchilardan iborat qariyb 300 nafar yetuk mutaxassis ishtirok etdi. Yana bir e'tiborli jihati shundaki, reproduktiv salomatlikni ta'minlash bo'yicha "o'zbek modeli" BMT tomonidan Sharqiy Evropa, Boltiqbo'yi va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari uchun eng yaxshi Mintaqaviy dastur sifatida tavsiya etildi.

Ayollarimiz, opa-singillarimizning mehnatini yengillashtirish, ularning salohiyatidan faol ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy sohalarda, bolalar tarbiyasida yanada samarali foydalanish maqsadida ilgari ko'rilmagan yoki e'tibordan chetda qolgan aniq chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, bu borada "Oilalarning ijtimoiy-maishiy sharoitlarini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi hukumat qarori qabul qilinib, unga muvofiq, xonadonlarning maishiy va oshxona, elektr jihozlari bilan ta'minlanishini yaxshilash, ayollarning uy-ro'zg'or yumushlarini yengillashtirishga qaratilgan iste'mol kreditlarini kengaytirish bo'yicha katta ishlar amalga oshirildi. Yurtimizdagi oilalarga uch yilga mo'ljallangan iste'mol kreditlari ajratilgani opa-singillarimizning og'irini yengil qilish, aholining turmush madaniyatini oshirishga qaratilgani bilan ayniqsa ahamiyatlidir. Xususan, mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab joriy etib kelinayotgan, xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olingan "Sog'lom ona – sog'lom bola" dasturi doirasidagi chora-tadbir katta ahamiyatga molikdir. Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uni rivojlantirish davlat dasturini amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.⁶ Ushbu hujjatga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 27 fevraldagi PF-4087-sonli Farmoniga muvofiq

⁶O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 27 fevraldagi PF-4087-sonli Farmoni

o'zgartirishlar kiritildi. 1998 yilda qabul qilingan sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish davlat dasturining eng muhim qoidalari va maqsadli vazifalari muvaffaqiyatli amalga oshirilganini qayd etib o'tish mumkin. Tibbiy xizmat ko'rsatish tizimi amalda to'liq qayta ko'rib chiqildi, sog'liqni saqlash tizimini barpo etishning printsiplari yangicha yondashuvlari ishlab chiqildi. Onalik va bolalikni muhofaza qilish, ayollar sog'lig'ini mustahkamlash tizimida muhim o'zgarishlar ro'y berdi. Bo'lg'usi onalarning salomatligini muntazam nazorat qiluvchi hamda sog'lom bolalar tug'ilishiga ko'maklashuvchi skrining markazlarining keng tarmog'i vujudga keltirilganligi nihoyatda muhim ahamiyatga egadir. Tug'ruq muassasalarining moddiy-texnik bazasi sezilarli darajada mustahkamlandi. Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish borasida qabul qilingan chora-tadbirlar insonlarga tibbiy xizmat ko'rsatish darajasini yanada oshirish, aholi turmushini yaxshilash imkonini berdi. Umuman olganda, istiqbol yillarida sog'liqni saqlash tizimida amalga oshirilgan tizimli islohotlar samarasini onalar va bolalar o'limi ko'rsatkichlarining 3 baravarga kamaygani, mamlakatimiz fuqarolarining o'rtacha yashash umri erkaklarda 67 yoshdan 73 yoshgacha, ayollarda esa 75 yoshgacha ko'tarilgani misolida ham yaqqol ko'rish mumkin. Shaxsning o'z-o'zidan qoniqishi inson hayoti farovonligining muhim omilidir. Shu munosabat bilan, zamonaviy ayollar, xotin-qizlarning nafaqat moddiy turmushdan qoniqishi, balki o'zini anglashi, o'z hayoti va mavqeidan qoniqish olishi ham inson hayot sifatini belgilovchi muhim omil hisoblanadi.

Ushbu omillarni ikki asosiy guruhga ajratish mumkin:

1) oila omillari oilaviy munosabatlardan qoniqish, oiladagi er va xotin bajaradigan rollarning o'zaro mutanosibligi, oiladagi mehnat va xo'jalik majburiyatlarining to'g'ri taqsimlanganligi, oila a'zosining o'z shaxsiy ehtiyojlarini qondirish imkoniyati mavjudligi, oila a'zosining oiladagi mavqeidan qanoatlanganligi va boshqalar;

2) shaxsning o'z mehnat faoliyatidan qoniqishi sifatida ifodalanishi bo'lib, bunda insonning o'zi bajaradigan ishdan ma'no-mazmun topishi, mehnat faoliyati orqali o'zini namoyon eta olish imkoniyati mavjudligi va hokazo.

Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida xotin-qizlarning mamlakatimiz iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy hayotidagi faolligini oshirish, ma'naviy va intellektual salohiyatini yuksaltirish, salomatligini mustahkamlash, oila, onalik va bolalikni muhofaza qilish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlar o'z samaralarini bermoqda. Agar zamonaviy ayollar hayot mazmunini aynan shu jihatdan tahlil etsak, mustaqillik yillarida mamlakatimiz ayollari oldida mazmunan va shaklan o'zgargan qator imkoniyatlarni ko'ramiz. Avvalambor, bunday tahlilni ayollar faoliyat ko'rsatuvchi barcha jabhalar misolida ko'rib chiqish o'rinli. Bunday sohalar qatorida zamonaviy ayollarning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy sohalaridagi faolligi, qolaversa, mamlakatimiz xotin-qizlariga yaratilgan sharoitlarda ko'rish mumkin. Xususan, siyosiy faollik haqida shuni qayd etish mumkinki, bugungi kunda aynan shu sohada erkak va ayollar o'rtasidagi farqlarni bartaraf etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Oliy Majlisga deputatlar orasida kamida 30% gacha ayol vakillarning bo'lishi mamlakatimizdagi faol ayollar orasida yangidan-yangi imkoniyatlar ochmoqda.

1.2 IJTIMOIIY JARAYONLARDA XOTIN-QIZLAR ISHTIROKINI FAOLLASHTIRISH YO'LLARI

Ayol muqqaddas zotdir. U jamiyatning muhim jabhalarini o'zining fayz-u barokati bilan yoritib turuvchi quyosh kabidir. Bu dunyodagi jamiki ongli yaratiq borki, ularning hammasi ayolni ulug'laydi, hurmat qiladi. Darhaqiqat yurtimizda ham xotin-qizlarga, ularning faoliyatiga, jamiyatdagi rolini mustahkamlashga qaratilgan e'tbor kuchaytirilmoqda. Xususan, yurtboshimiz Islom Karimov ham o'zbek ayollarini hurmat qilib shunday deydilar : "O'zining go'zalligi va fidoiyligi, mehnatkashligi va bag'rikengligi bilan bizning yurtimiz ayollariga teng keladigan ayollar dunyoda kamdan-kam topiladi ''.

Ayolning jamiyatdagi faolligi, avvalo, oilaning mustahkamligi-yu oqil va bilimdon farzandlarni kamolga yetkazishdek ulkan mas'uliyatni ado etish bilan belgilanadi. Shu bois uning sha'ni, obro'-e'tibori, mavqe- darajasi uning oilasidagi onalik martabasi, ayollik vazifasiga qarab baholanadi. Bizning Sharqda esa

qadimgi ayol uchun oila eng muqaddas oshyon, har narsadan ustun turuvchi qadriyat hisoblanadi. Har qanday sharoitda ham u xalqning tinchlik- xotirjamligi, farzandlarining sog'-salomatligi uchun qayg'urgan, oilasini turli-tuman tashvishlardan himoya qilishga kuch topa olgan. Buni esa haqiqiy ma'nodagi fidoiylik deyish mumkin .

Ayolning jamiyatdagi o'rnini yanada mustahkamlash, uning faolligini oshirishda quyidagilar muhimdir:

-fuqarolik faoliyatini doimiy qo'llab-quvvatlab borilishi;

-ularda mustaqillik va milliy istiqlol g'oyalariga sadoqat tuyg'usini shakllantirish;

-chuqur bilim va intellektual salohiyatning tarkib toptirilishi, milliy qadryatlar va urf-odatlarining ular ongiga singdirilishi;

-bozor iqtisodiyoti sharoitida ishbilarmonlik, tadbirkorlik kabi hislatlarning barqarorlashuvi .

Umuman olganda, Prezident I.Karimovning ayollar ravnaqi uchun qilayotgan juda katta ishlariga qaramasdan ba'zi o'zbek ayollarining hozirgi ahvoli zamon talabi darajasidan ancha yiroq bo'lib qolmoqda.

Respublikada faoliyat ko'rsatayotgan xotin-qizlar qo'mitalari, ayollar uyushmalari, markazlari va nodavlat jamg'armalari faoliyati bilan tanishish, shuningdek, «Sog'lom avlod» hamda «Ona va bola» Davlat dasturlarining mazmunidan kelib chiqqan holda shu xulosaga keldikki, ayni vaqtda xotin- qizlar faolligini oshirish borasida bir qator muammolar ham mavjud. Bular:

-muayyan ijtimoiy-iqtisodiy tuzumdan yangicha, demokratik boshqaruvga o'tayotgan mamlakat va jamiyat uchun ayollar muammosini demokratik va insonparvarlik g'oyalari nuqtai nazaridan hal etish bo'yicha ilmiy majmualarning mavjud emasligi;

-ayollar ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan axborotlar va ishlanmalarning yetarli emasligi;

- xotin-qizlarning jadal faoliyatini muvofiqlashtirish sohasida bir qator kamchiliklarning mavjudligi.

Avvalo, barkamol, soglom, mehnatsevar, vatanparvar, bilimli avlod shakllanadi. Mamlakatda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy barqarorlik vujudga keladi. Mamlakatimizning dunyo miqyosidagi mavqei yanada oshadi. Har bir insonning o'z ruhiy olami bo'ladi. Bu olamda uning uchun eng qadrliligi, eng suyuqlik bo'lgan chehralar yashaydi. Bu olamdagi eng muhim nuqta, barcha ezguliklarni birlashtirib turuvchi markaz esa – oiladir. Murg'ak jonlar esa shu muqaddas maskanda yaxshi-yomonning farqini anglaydilar, har jihatdan kamolga yetadilar, qarindosh-urug'lariga, el-yurtiga xizmat qilishni o'rganadilar. Jamiyatimizda oilaning ahamiyati naqadar muhimligini anglagan holda, shuni aytish mumkinki, o'z navbatida xotin-qizlar jamiyatning muhim bo'g'inidir. Zero, yosh avlod – Vatan kelajagidir. Yosh avlodning komilligi, bilimdonligi, sog'lomligi, Vatanini, ota-onasini ardoqlaydigan, sevadigan bo'lishi aynan ayollar zimmasidadir. Ushbu sharafliligi, ayni vaqtda mas'uliyatli vazifani bajarishda ayollarimizning o'zlari ham yuqorida keltirilgan sifatlarga ega bo'lishlari kerak. Xotin-qizlar uchun bugungi kun zamon talabi ham xuddi shunday bo'lmoqda.

Islahotlarning bugungi bosqichida ayollarning ma'naviyati ham muhim ahamiyatga ega. Binobarin, tarixdan jamiyat taraqqiyoti va istiqboli ko'p jihatdan ayollarga bo'lgan munosabat bilan belgilangan. Tariximizga bir nazar tashlasak, so'z mulkining sultoni Alisher Navoiy g'oyalari, ma'naviyatining mazmuni ayollarning hurmat-e'zoziga qaratilgan bo'lsa, Sohibqiron Amir Temur saroyida ham ayollar mavqei baland bo'lgan. Bola tarbiyasida ayolning tadbirkorligi jamiyatimizda so'g'lom turmush tarzini yaratib, ilg'or g'oyalar bilan qurollangan, raqobatbardosh mehnat resurslarini yaratish bilan jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga beqiyos foyda keltiradi. Ayollarning jamiyatidagi ishtiroki – oiladagi onalik va bolalik vazifalariga xalal bermay, aksincha har ikkalasi bir-birini to'ldirib boradi. Zero, ayol kishinifg o'qimishli bo'lishi, jamiyatdagi ishtiroki tafakkurni kengaytirib, oiladagi tarbiya berishdek murakkab va sharafliligi vazifani amalga oshirish uchun qimmatli manba hisoblanadi. 2014-yilining yurtboshimiz tomonidan'' Sog'lom bola yili'' deb nomlanishi faqatgina yosh avlodning barkamolligiga nisbatan emas, balki ushbu barkamollikka javobgar

shaxs hisoblangan onalarning salomatligiga taalluqlidir, desak noto'g'ri bo'lmaydi. Ayni damda respublikamizda xotin-qizlarning salomatligini asrash va ta'minlash davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligini aytish joizdir.

Prezidentimiz Islom Karimov "Tan olish kerakki, ayollar bandligi haqida so'z yuritganda, biz odatda xotin-qizlarning mehnati asosan ta'lim sohasida, avvalo, bog'cha va maktablarda, shuningdek, sog'liqni saqlash tizimida, yengil va oziq-ovqat sanoati, qayta ishlash tarmoqlari kabi an'anaviy yo'nalishlarda madaniyat va san'at sohasida ko'proq talab etiladi, deb hisoblashga o'rganib qolganmiz". Umuminsoniy qadriyatlarni, fazilatlarni unutmagan holda u bilan uyg'unlashtirilgan holda milliy qadriyatlarni, milliy fazilatlarni ham qalbiga jo qilish, tafakkur quroliga aylantirish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Yangilik, avvalo, inson tafakkurida, qalbida bunyodga kelar ekan, bu borada, ayniqsa, ayollarimizning xizmati katta va buyukdir. Ona- yurtim, ona-tabiat, ona-Vatan, ona-tilim degan muqaddas tushunchalarda ona so'zi baland pafosda ifoda etilishi ham bejiz emas. Shuning uchun ham, mustaqillik yillarida xotin-qizlarning jamiyatdagi maqomi va mavqeini ko'tarish, ularning hurmatini joyiga qo'yish, manfaatini himoyalash, mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash davlatimizning, jamiyatimizning ustuvor yo'nalishi va maqsadlaridan biriga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi uchun aholisining yarmidan ko'prog'i 51,7%ini, ishchi kuchining 45%ini⁷ tashkil etgan ayollarning jamiyat hayotidagi o'rni, mavqei, faollik darajasi, ma'naviy, tarixiy qadriyatlarni o'zlashtirish va yangi qadriyatlarni shakllantirishdagi roli jamiyat taraqqiyotini belgilovchi eng muhim omillardan biridir. Ayniqsa, "bugungi murakkab globallashuv davrida ma'naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, xalqimiz ma'naviyatini asrash va yuksaltirish, ayniqsa yosh avlodning qalbi va ongini turli zararli g'oya va mafkuralar ta'siridan saqlash va himoya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilayotgan"⁸ bir davrda xotin-qizlarning ma'naviy salohiyati yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, o'zbek ayollari zimmasida "milliy sharqona

⁷Mustaqil O'zbekiston tarixining dastlabki sahifalari (Davriy to'plam №3). –T.: Sharq. 2000. 137-b.

⁸I.Karimov. Yuksak ma'naviyat-yengilmaskuch. –T.: Ma'naviyat, 2008. 2-b.

ma'naviyatni saqlab qolish va uni yanada yuksak darajada, zamonaviy asoslarda davom ettirish" kabi mas'uliyatli vazifa yotadi. Ayollarimiz bu mas'uliyatli vazifani, avvalo, oiladagi tarbiyadan boshlashadi. Taraqqiyparvar ma'rifatparvarlardan biri Abdulla Avloniy "Tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilinur?"- degan savolga "Birinchi uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidir"⁹-deb javob bergan edi. Haqiqatdan ham millat tariyasiga birinchi navbatda onalar mas'uldir.

Ma'lumki, mustaqillik yillarida oilaning jamiyat tayanchi sifatidagi o'rni va har bir oilaning farovon turmush tarzini ta'minlash davlatimiz siyosati darajasiga ko'tarilib, muhim ustuvor yo'nalishlardan biri deb e'tirof etilgan. Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda: "Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. ...Shuning uchun ham aynan oila muhitida paydo bo'ladigan ota-onaga hurmat, ularning oldidagi umrbod qarzdorlik burchini chuqur anglash har qaysi insonga xos bo'lgan odamiylik fazilatlari va oilaviy munosabatlarning negizini, oilaning ma'naviy olamini tashkil etadi"¹⁰. Oilada esa, ma'naviy rahnamo ayol, ya'ni onadir. SHu sababli ham barcha davrlarda ayollarning qiyofasi jamiyat ma'naviyati holati va darajasidan darak beruvchi bir nishona bo'lib kelgan. Ayollarni e'zozlash, ularga hurmat va ehtirom ko'rsatish qadimdan sharq xalqlariga xos qadriyat hisoblanadi.

Oila hayotning abadiylikini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, urf-odatlarimizni, an'ana, axloqiy me'yor va qoidalarni mujassam etgan, kelajak avlod tarbiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan, insonlar o'rtasida o'ziga xos munosabatlar shakllantiradigan ijtimoiy makondir. Ma'lumki, o'zbek oilasi azaldan o'ziga xos mavqega ega bo'lib, unda turli avlod vakillari o'rtasida samimiy muomala, mehr-oqibat, muruvvat, andisha va or-nomus kabi tuyg'ular o'rin tutadi. Bunday insoniy fazilatlar er-xotin, qaynona-kelin, ota-ona va farzand o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda namoyon bo'ladi. Oilada er oila ta'minotchisi,

⁹A.Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 jildlik.2-jild.-T.: Ma'naviyat,1998. 37-b.

¹⁰I.Karimov. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008. 52-53-b.

ayol tarbiyachi va uy-ro'zg'or yumushlarining bajaruvchisi sifatida faoliyat ko'rsatar ekan, oiladagi sog'lom muhit avvalo, ayol ma'naviyati bilan bog'liqdir. Ayolning ziynati ham uning ma'naviyatidir. Shu sababli ham xalqimizda "yaxshi xotin-baxtu-oltin", degan hikmatli so'z bor. Zero, ayol ma'naviyati oilaviy qadriyatlar an'anaviyligini ta'minlashda muhim omil sanaladi. Chunki, oiladagi o'zaro munosabatlarning barchasi ayol tomonidan boshqarilib, tartibga solib turiladi. Shu bois ham muayyan oilaning mahalla-ko'ydagi obro'-nufuzi, ro'zg'oridagi fayzu-baraka, avvalo, shu uyning bekasi – ayolga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Buyuk alloma Ibn Sinoning "Uy tutish tadbiri" haqidagi asarida farzand tarbiyasi va unda ayollarning o'rni masalalari o'z aksini topgan bo'lib, qomusiy olim o'zining ushbu asarida ayollarning oila va jamiyatdagi o'rni muhimligini e'tiborga olgan holda, bir qator mezonlarni ishlab chiqadi. Bular quyidagilar: 1) xotin kishi bilimli bo'lsin; 2) dinga e'tiqodli bo'lsin; 3) uyatchan, sharm-hayoli; 4) tabiatan jasur va sabr-toqatli; 5) o'z erini qattiq sevishi; 6) tug'ish va bola tarbiyasi haqida o'ylashi; 7) ezma bo'lmasligi; 8) o'z eriga bo'ysunishi; 9) to'g'ri so'z, kamtar va farosatli bo'lishi; 10) u hech vaqt o'z sha'niga dog' tushirmasligi; 11) eri bilan ehtiyotkor bo'lib, uning hurmatini joyiga qo'yib muomala qilishi; 12) o'z vazifasi va burchini yaxshi bilishi; 13) ro'zg'ordagi narsalardan to'g'ri, tejamkorlik bilan foydalana olishi; 14) o'zining xulq-atvori va yaxshi fazilatlari bilan eridagi kamchiliklarni yo'qotishga erishishi¹¹ kabi fazilatlarni sanab, ayolning aqlliligini ko'klarga ko'tarib maqtaydi. Inson, deydi u, yaxshi va yomon mayllarning ijodkori bo'ladi va o'z xarakterini shakllantirib boradi, shuningdek, yaxshilikka moyillik inson tabiatini go'zallashtirsa, yomonlikka moyillik uning xulqini tubanlashtiradi.

Qomusiy olim tomonidan ishlab chiqilgan mazkur mezonlar bugun ham oila ma'naviy muhitining sog'lom bo'lishini ta'minlashda muhim o'rin tutgani holda, ayol ma'naviyatining oiladagi ahamiyatini yana bir karra isbotlaydi. Shuningdek, ayol ma'naviyati oilada qadriyatlar davomiyligini ta'minlash bilan birga farzandlarni shu qadriyatlar asosida (kattaga hurmat, kichikka izzat, ota-onaga

¹¹ T.Do'stjonov. Ma'mun akademiyasi olimlarining iqtisodiy-ijtimoiy qarashlari. –T.: 2005. 61-bet.

hurmat, ayolni e'zozlash) barkamol shaxslar etib tarbiyalashda ham muhim ahamiyat kasb etishi barchamizga ma'lum. Agar erkak millatning buguni bo'lsa, ayol millatning kelajagidir. Shunday ekan, oila muhitining qanchalik sog'lomligi, avvalo, ayolga bog'liq bo'lganidek, jamiyatdagi ma'naviy muhitning sog'lomligi ham bevosita oilaga va oila tarbiyasiga mas'ul bo'lgan onaga bog'liq. Qaysi zamon va makonda bo'lmasin, ayolning birlamchi vazifasi komil farzandlarni tarbiyalash va ularni sog'lom fikrli insonlar qilib ulg'aytirishdan iborat bo'lgan. Bu vazifa hech qachon o'z ma'no va mohiyatini yo'qotmaydi. Toki ayol farzandini yuksak axloqli, vatanparvar va fidoyi qilib voyaga etkazar ekan, o'sha millatning kelajagi yorug' bo'ladi. Va aksincha, agar ayol o'z oilasidagi ma'naviy muhitni boshqara olmasa, bundan el-yurt ham aziyat chekadi. Bu haqda yurtboshimiz shunday deydi: "...bolalarimizni yoshlik chog'idan boshlab milliy tarbiya, axloq-odob, yuksak ma'naviyat asosida voyaga etkazish biz uchun doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Bu masalaga e'tibor bermaslik nafaqat ayrim ota-onalar, balki butun jamiyat uchun juda qimmatga tushishini ham ko'pgina hayotiy misollarda ko'rish mumkin"¹². Bu haqda allomalar ma'naviy merosida ham ko'p fikr-mulohazalar bildirilgan. Xususan, Ibn Sino bolani jamiyatdan ajratib, alohida tarbiyalashga qarshi chiqib, bunday tarbiya bolani baxtsiz qiladi, deydi. "Oiladagi yomon tarbiya,- deb uqtiradi olim,-faqat shu oilaning o'zigagina salbiy ta'sir qilib qolmasdan, balki atrofdagi boshqa oilalarga ham salbiy ta'sir qilishi mumkin"¹³.

Qomusiy alloma tomonidan ko'tarilgan fikr-mulohazalar: ilm-ma'rifatning ahamiyati, oiladagi sog'lom ma'naviy muhitning va ayniqsa, ona-ayolning roli to'g'risida, shuningdek, insonni ulug'lash, adolat, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, xalqparvarlik, mardlik, sahiylik, kamtarlik, muruvvatlilik, odob va axloq, ilmu-ma'rifat to'g'risida ilgari surilgan g'oyalar faqat o'sha davr uchun ahamiyatli bo'libgina qolmasdan, balki hozirgi kunda ham o'zining ma'rifiy –tarbiyaviy qimmatini yo'qotmagan. Allomalarimizning asarlarida ham ayol shaxsi ulug'langan hamda e'zozlangan. Jumladan, Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar

¹²I.Karimov. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008. 57-b.

¹³T.Do'stjonov. Ma'mun akademiyasi olimlarining iqtisodiy-ijtimoiy qarashlari. –T.: 2005. 62-bet.

shahri”, Abu Rayhon Beruniyning “Mineralogiya”, “Geodeziya”, “Hindiston”, “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, Ibn Sinoning “Tadbiri manzil”, “Axloq”, “Axloq fani”, “Oila xo‘jaligi”, “Tib qonunlari”, Imom al Buxoriyning “Al-Jome‘ as-Sahih” asarlarida ayollarning oila va jamiyatda tutgan o‘rni, ularning vazifalari, farzand tarbiyasidagi mas‘ulligi o‘z ifodasini topgan. Chunki, millatning shakllanishi ayolning bilimi, ma‘naviyati va madaniyati bilan uzviy bog‘liqdir. Hadisshunos alloma Imom Buxoriy tarbiya jarayonining muhim ahamiyatini, yaxshi tartib insonning bezagi ekanligini e‘tirof etib, shu bezak ayollarda bo‘lishi lozimligini bot-bot ta‘kidlagan. U yaxshi xulq-atvor o‘z vaqtida va to‘g‘ri tarbiyalash orqaligina qaror topishi mumkinligi haqidagi fikrni asoslar ekan, tarbiya ishida ayollarning ishtirok etishi, shubhassiz, zaruriy shartlardan ekanligini ko‘rsatadi. Ibn Sino “Oila xo‘jaligi” kitobida shunday yozadi: “...ayol erkakning yaxshi va munosib yo‘ldoshi, u bola tarbiyasida yaxshi voris va yordamchidir, u aqlan dono, iffatli, halol, pok, to‘g‘ri so‘z, kamtar bo‘lishi, iffati va obro‘cini to‘kmasligi lozim.....”. Alisher Navoiy ham ayolning oiladagi o‘rni haqida qimmatli fikrlarni aytib qoldirganki, bunday dono fikrlar bugungi kun uchun ham tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Xususan, u “...ayol oilaning davlati va baxti. Ayol oqila bo‘lsa, ro‘zg‘orda tartib-intizom, asbob-anjomlar pokiza va saranjom bo‘ladi. Kishi bu kabi jufti halol bilan qovushsa baxtga erishadi, g‘am va kulfatda sirdoshga ega bo‘ladi. Agar ayol kishi hayosiz, beandisha, yomonlik axtaruvchi bo‘lsa, undan ruh azob chekadi. Tili achchiq bo‘lsa, dilni yaralaydi, pokiza bo‘lmasa, undan eriga yuzi qarolik keltiradi, axloqsiz bo‘lsa, oila rasvo bo‘ladi”,- deb ta‘kidlaydi.

Shuning uchun ham, ayol millat tarbiyachisi ekan, uning ma‘naviyati kelajak taraqqiyotni hal qiluvchi yoshlarni voyaga etkazish va ularni komil inson darajasiga ko‘tarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero millatni ona yaratadi va ona tarbiyalaydi. Oqilalik, pokizalik misoli bo‘lgan onalar yurtimiz ma‘naviyatining asosini, madaniyatimiz mazmunini ham tashkil qiladi. Tarixdan ma‘lumki, deyarli barcha buyuk allomalarimiz, ulug‘ ulamolarimiz, bobokalonlarimiz onalari pokiza, o‘qimishli, etuk bilim egalari, ma‘rifatli ayollar

bo‘lishgan. Ibn Sino onasi Sitorabonu, Mirzo Ulug‘bek onasi Gavharshodbegim, Bobur Mirzo onasi Qutlug‘ Nigorxonim, Bahouddin Naqshband validasi Bibi Orifa, Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy onasi Oyshabibi, Munavvar qori Abdurashidxonov onasi Xosiyatxon otin, Abdurauf Fitrat onasi Bibijon, Ishoqxon Ibrat onasi Huribibidan birinchi tarbiyani, ilk ilm-saboq sirlarini o‘rganib, jahon ilm-fani, madaniyatiga ulkan hissa qo‘shishdi. SHuning uchun ham, millatni qanday millat bo‘lib shakllanishida onaning-ayolning mehnati beqiyos ekanligini e‘tirof etib, yurtboshimiz I.Karimov: “Ayollar uchun ijtimoiy faoliyat bilan bola tarbiyasini uyg‘unlashtirishga, sog‘lom avlodni voyaga etkazishga imkon beruvchi barcha shart-sharoitlar yaratib berish bizning muqaddas burchimizdir”¹⁴-deb ta’kidlaydi.

“Ayol”, “oila” va “jamiyat” naqadar muqaddas va mo‘tabar so‘zlar bo‘lib, ayol so‘zi go‘zallikni, oila-sadoqatni ifodalasa, jamiyat so‘zi esa, fidoiylikni anglatadi. SHunday ekan, ayol millat tayanchi sifatida jamiyat negizi hisoblangan oilada kelajagimiz taraqqiyotining garovi hisoblangan yuksak ma’naviyatli komil insonlarni tarbiyalashda mas’uldir. Ma’naviy dunyo - tarbiya, iymon-e‘tiqod va ilm bilan boyib, takomilga etib, shaxsni komillikka etaklar ekan, bunda millat tarbiyachisi bo‘lgan ayol ma’naviyatining o‘rni o‘sha millatning kelajagi yorug‘ bo‘lishida muhim rol o‘ynaydi. Bu haqida ma’rifatparvar Abdurauf Fitrat shunday degan edi: “Millat onalari tarbiya va ilm olishlari lozim, axloq va bilimlarini kamolga etkazishlari zarur”¹⁵.Jamiyatda ilg‘or fikrli, ma’naviy kamolot cho‘qqisiga erishgan ayollar qancha ko‘p bo‘lsa, millatning ma’naviyati ham shunchalik yuksak bo‘ladi. Zero, jadidlar ta’rifi bilan aytganda, “Ayol yuksalsa, yuksalur bashariyat!”.

Shuning uchun ham, jadidlar “xotin-qizlarni jamiyatning to‘la qonli a‘zolari sifatida qabul qilmasdan, oila masalasini to‘g‘ri hal qilmasdan, yosh avlodni to‘g‘ri yo‘lda tarbiyalamasdan turib, jamiyatni isloh qilish, uning rivojini taraqqiyot sari yo‘naltirish mumkin emas, oxir oqibatda millat taqdiri uning ayollari va oilasining

¹⁴ I.Karimov. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. –T.: O‘zbekiston, 1999. 332-bet.

¹⁵ A.Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. –T.: Ma’naviyat.1998. 98-bet.

holatiga bog‘liqdir¹⁶”- deb, o‘z harakatlari davomida quyidagi g‘oyalarni hayotga tatbiq etish uchun kurashdilar:

- ayollarning oiladagi o‘rnini belgilash orqali, ularning jamiyatdagi mavqeini oshirish, diniy va dunyoviy ishlardagi ishtirokida teng huquqlilikni ta‘minlash;
- xotin-qizlarning millat tayanchi ekanligidan, yosh avlodning ijtimoiy, ahloqiy va mehnat tarbiyasida mas‘ulligidan kelib chiqib, ularni ma‘rifatli qilish;
- har qanday jamiyatning madaniy-ma‘naviy darajasi xotin-qizlarga bo‘lgan munosabat bilan belgilanishi bois, ularga nisbatan salbiy munosabatni o‘zgartirish¹⁷.

Jadidlarning bu g‘oyalari negizida, ayollarning insoniyat tarixidagi beqiyos mavqei va oila jamiyatning asosiy poydevori ekanligi o‘z aksini topgan bo‘lib, jadid mafkurasi ilgari surgan ayol, oila, jamiyat masalalari umuminsoniy muammolarni hal etishga qaratilgan bo‘lib, bugungi kunda ham yuksak ahamiyatga egadir.

Shuning uchun ham mustaqillik yillarida respublikamizda xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni va mavqeini oshirish borasida qator samarali tadbirlar amalga oshirildi. Bu esa, ularning o‘z iste‘dod va qobiliyatlarini yanada kengroq namoyon etishlari uchun imkoniyatlar yaratmoqda. Bugun biz jamiyat hayotining qaysi sohasiga e‘tibor qaratmaylik, u erda ayollarning katta ijtimoiy kuch sifatidagi faoliyatining guvohi bo‘lamiz. Ayni paytda ayollarga nisbatan davlatimiz tomonidan olib borilayotgan g‘amxo‘rlik siyosati, ularga hurmat-e‘tibor bilan qarash o‘z navbatida ayollarimiz zimmasiga ma‘lum bir mas‘uliyat, ya‘ni mafkuraviy xurujlar avj olgan bugungi kunda jamiyatning ijtimoiy-ma‘naviy muhitini yanada sog‘lomlashtirish, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ajdodlarga munosib avlodlar etib, milliy-ma‘naviy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, muqaddas islom dinining mohiyatini to‘g‘ri talqin etish, yoshlarni turli zararli oqimlar ta‘siridan himoya qilishdan iborat nihoyatda dolzarb, yurtimiz kelajagi

¹⁶O‘zbekistonning yangi tarixi. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. Ikkinchi kitob. –T.: Sharq. 2000.375-bet.

¹⁷ Ражабова Д.Н. Проблемы молодёжи и женщин в воззрениях джадидов Туркестана (конец XIX-начало XX вв.). Автореф. дис....к.и.н -Т.: 2003. -27с;

bilan bog'liq masalalarni hal qilishda ayollarga suyanish va tayanish, ularning kuch-g'ayrati, aql-zakovatlaridan oqilona foydalanish zarurligini hayotning o'zi taqozo etmoqda¹⁸.

O'zbek ayollari oilaviy qadriyatlar asosida uy bekasi, mehribon ona, millat tarbiyachisi, jamiyatda esa, o'z o'rniga ega to'laqonli shaxs, malakali mutaxassis sifatida faol ishtirok etmoqdalar. Ayolning ma'naviy barkamolligi uning ijtimoiy faolligi bilan uyg'un holda namoyon bo'lib keng ko'lamli islohotlar muvaffaqiyatini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Ular o'z zimmasidagi mas'uliyatni to'laqonli his qilgan holda jamiyat sohasining barcha jabhalarida faol ishtirok etayotgan ekan, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasidagi amaliy tadbirlarni yanada izchillik bilan davom ettirish kelajagimiz poydevori bo'lgan yoshlarni vatanga sadoqat, yurtga fidoyi, "elim deb, yurtim deb yonib yashaydigan" shaxslar etib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni, davlatimiz tomonidan xotin-qizlar faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlar, ularga bo'lgan e'tibor jamiyatda bilimli, ma'naviyati yuksak, madaniyatli ayollarning ko'payishiga sabab bo'ladi va bular iste'dodli farzandlarimiz ko'payishida o'z samarasini ko'rsatadi. Zero, yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda: "Oilani ham, jamiyatimizni ham birlashtirib, unga fayzu-barakot kiritadigan, xonadonlarimizni mehr-muhabbat, nafosat, ezgulik nuri bilan munavvar qiladigan zotlar ham aslida mo'tabar onalarimiz, munis opa-singillarimizdir"¹⁹. Jamiyatda xotin-qizlarning rolini mustahkamlash haqida so'z borar ekan, shuni aytib o'tish lozimki, yuqorida aytib o'tilgan muammo ahamiyatlidir. Biz, avvalo, jamiyatimizni bundayin eskicha fikrlardan xalos qilmog'imiz darkor. Zero, bugungi kun ayoli o'zini qolgan muhim sohalarda ham ko'sata olishini isbotladi.

Bugungi kun o'zbek ayoli o'zini har jabhada ko'rsata olyapti va buning uchun unga yetarlicha shart-sharoit yaratilib berilmoqda. Mustaqillikka

¹⁸ Ayol-barkamol avlod murabbiysi. Eng katta boyligimiz-tinchlik va barqarorlikni asraylik. -T.: Akademiya,2006. 59-b.

¹⁹ I. Karimov.Prezident Islom Karimovning 1998 yil 5 dekabrda Konstitutsiyaning olti yilligiga bag'ishlangan tantanali majlisdaso'zlagan nutqidan. Ayolga ehtirom.-T.: O'zbekiston,1999. 10-bet.

erishganimizdan so'ng 13 nafar xotin-qizlar "O'zbekiston Qahramoni" unvoniga sazovor bo'ldi. Albatta, buning ostida katta mehnat va ulkan mashaqqatlar yotadi. Ushbu o'rinda yurtboshimiz shunday deydilar: "Lekin menga buyursa, ham davlat xizmatini, ham oila va ro'zg'or yumushlarini, ham farzand tarbiyasini qoyil qilib bajarib kelayotgan barcha- barcha ayollarni qahramon deb aytgan bo'lardim".

Ayol hamisha muqaddas hisoblangan. U nafaqat baxt- saodat, oilaviy ahillikning muqaddas ramzi, balki jamiyatdagi etnik va millatlararo totuvlikni siyosiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga o'zining munosib hissasini qo'shadigan insondir. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, davlatimiz siyosatida ijtimoiy hayotda erkaklar bilan teng ravishda ayollarga ham o'z iqtidori, iste'dodini erkin namoyon qilishga keng imkoniyatlar yaratib berildi. Istiqloqlning dastlabki yillarida jamiyatning ma'naviy dunyoqarashini yangi qo'yilgan maqsadlarga yo'naltirilgan holda shakllantirish muammolari mavjud edi. Chunki, kommunistik mafkura barham topgach, uning o'rnida vujudga kelgan bo'shliqni diniy dunyoqarash, an'anaviy qadriyatlar, urf-odatlar egallay boshladi. Hattoki, sovet tuzumi davrida ham ayollarga erkaklarga qaram ojiza sifatida qarash stereotiplari saqlanib qolgan edi. Bunday qarash xotin-qizlarning, ayniqsa, qishloq ayollarining ahvoli, tanlash imkoniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin edi. Shuningdek, aholining huquqiy madaniyati darajasi pastligi tufayli ma'lumotli xotin-qizlar o'z huquqlarini yoki ularni qay tarzda amalga oshirishni bilmasliklari vaziyatni yanada jiddiylashtirdi. Bu borada kamchiliklarga barham berish, xotin-qizlarni tom ma'noda yangi demokratik tamoyillarga asoslangan fuqarolik jamiyatining teng huquqli bunyodkoriga aylantirish maqsadida o'z taraqqiyot yo'lini tanlagan yurtimizda ayollar ijtimoiy-siyosiy mavqeini mustahkamlash masalalarining dolzarbligini keltirib chiqardi. Ayni shu ma'noda mazkur bobda ayollarning tenghuquqligi va jamiyatdagi siyosiy nufuzini oshirishning huquqiy va tashkiliy asoslari, fuqarolik jamiyatini barpo etishda ayollarning o'rnini hamda ayollar ijtimoiy mavqeini mustahkamlashdagi siyosiy, sotsial va psixologik texnologiyalarni rivojlantirish zarurati kabi masalalar tadqiq etiladi.

O'zbekistonda ayollar rolini oshirish bo'yicha faol ish olib borilmoqda. Bunda davlatning ayollar manfaatini himoya qilish siyosati, bu sohadagi ishlarni baholash, ularning rolini oilada, jamiyat va davlat boshqaruvida oshirish, ayollar uyushmalarining mamlakat siyosiy darajasiga ko'tirilgan. Umuman olganda, jamiyatda erkaklar va ayollar teng huquqliligi to'g'risidagi normalar Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ustavida mustahkamlanib qo'yilgan. Bu shundan dalolat beradiki, xotin-qizlar va erkaklar tengligi muammosi butun jahonda muhim ahamiyat kasb etuvchi masala.²⁰ Ushbu masalaga oid ko'pgina xalqaro huquqiy hujjatlar – Inson huquqlari butun jahon deklaratsiyasi, Nikohdagi xotin-qizlarning fuqaroligi to'g'risidagi 1957 yil 20 fevraldagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Konvensiyasi, Ayollarning siyosiy huquqlari to'g'risida 1953 yil 31 maydagi Konvensiya, Ayollar va erkaklar mehnatini teng ravishda rag'batlantirish to'g'risidagi 1951 yil 2 iyundagi Jenevada qabul qilingan Konvensiya, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqiy to'g'risidagi halqaro pakt, fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi halqaro pakt (1952 yil 20 dekabr), Oilada zo'ravonlikka qarshi kurashish bo'yicha Polsha Deklaratsiyasi 1995 yil dekabr ayollarga nisbatan diskriminatsiyasi qilishning hamma shakllarini bartaraf qilish to'g'risidagi Konvensiyaga Fakultativ Protokollarda, Pekin Platformasida ham mavjud salbiy holatlarni bartaraf etishga qaratilgan qoidalar qayd etib o'tilgan.

BMT doirasida qabul qilingan ayollar huquqlari diskriminatsiya qilishning barcha shallariga barham berish to'g'risidagi konvensiyada (1979 yil 18 dekabr) xotin-qizlar va erkaklar tengligi tushunchasiga oid standartlar berilgan. Konvensiya oilaviy hayot masalalarida erkak va ayollar uchun bir xil huquq va burchlarni o'rnatadi. U ota-onalar oilaviy vazifalarni mehnat faoliyati bilan birga qo'shib olib borishi va ijtimoiy hayotda qatnashish uchun sharoit yaratuvchi bolalarni himoya qiluvchi tashkilotlarning tarmoqlarini tuzishga da'vat etadi. O'zbekiston Respublikasi ushbu Konvensiyaga 1995 yil 18 avgustda qo'shilgan.²¹

²⁰B.Po'latov. Ayollarning ijtimoiy –iqtisodiy huquqlarini ta'minlashda prokuratura organlarining vazifalari // O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokroturasining oliy o'quv kurslari axborotnomasi. –T.: 2011, №1, 32-bet.

²¹ Qarang: B.Po'latov. Ayollarning ijtimoiy –iqtisodiy huquqlarini ta'minlashda prokuratura organlarining vazifalari // O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokroturasining oliy o'quv kurslari axborotnomasi. –T.: 2011, №1, 32-33-b.

1967 yil 7 noyabrda qabul qilingan “Ayollarga nisbatan kamsitishlarga barham berish to‘g‘risida”gi deklaratsiyaning 1-moddasiga muvofiq, ayollarning erkaklar bilan teng huquqli inkor qilinishiga yoki cheklanishiga olib keluvchi kamsitish o‘z asosiga ko‘ra adolatsizlik hisoblanadi va inson qadr-qimmatiga qarshi jinoyatdir. O‘zbekiston Respublikasi xalqaro hamjamiyatning teng huquqli a‘zosi sifatida so‘nggi yillarda halqaro huquqning, jumladan, uning xotin-qizlar huquqlariga oid qoidalarning faol sub’ektlaridan biriga aylandi. Ma’lumki, xotin-qizlar huquqlarini ta’minlash va himoya qilishda parlament tomonidan ratifikatsiya qilingan Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiya muhim o‘rin tutadi (SEKAW Konvensiyasi).

BMT ning 1967 yil 18 dekabrda qabul qilingan “Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida”gi konvensiyasini O‘zbekiston Parlamenti 1995 yil 6 mayda ratifikatsiya qildi. Konvensiyaning bajarilishi ustidan nazoratni BMT ning aynan xotin-qizlar huquqlari bilan shug‘ullanadigan Xotin-qizlarga nisbatan barcha kamsitilishlarga barham berish qo‘mitasi amalga oshiradi. O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishgandan so‘ng o‘tgan 20 yil mobaynida inson huquqlariga oid 69 xalqaro huquqiy aktini (jumladan, BMT ning oltita asosiy konvensiyaviy hujjatini) ratifikatsiya qildi. Ularning aksariyati xotin-qizlarning huquq va asosiy erkinliklarini ta’minlash masalalariga daxldordir. O‘zbekiston Respublikasi hukumati Qo‘mitaga Xotin-qizlar huquqlri kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiyaning bajarilish yuzasidan milliy davriy ma’ruzasini taqdim etib kelmoqda. Azaldan o‘zbek xalqi erkaklarida o‘z ayolini avaylash, begona ko‘zdan asrash, jismoniy mehnat bilan shug‘ullanishiga yo‘l qo‘ymaslik hollari kuzatiladi. SHu sababli ular ayollarni ijtimoiy hayotga jalb qilishni o‘zlariga ep ko‘rishmagan. Bu fikrlarimizning yorqin ifodasini o‘zbek xalqining ma’naviy qadriyatlarini o‘zida aks ettirgan “O‘tgan kunlar”, “Mehrobdan chayon” kabi asarlarda ko‘rishimiz mumkin. Ushbu asarlarda uzoq davrlardan beri o‘zbek oilasida shakllanib kelgan erkak va ayol munosabatlari ahloqiy me’yorlari

hamda ularning o'ziga xos xususiyatlari o'z aksini topgan. Lekin, shu bilan birga, XVII-XVIII asrlarda Turkistonda yuzaga kelgan ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy hayotdagi tanazzul davri gender munosabatlarida ham aks eta boshladi va bu haqidagi fikrlar badiiy adabiyotda ham o'z ifodasini topdi. "O'tmishdan ertaklar" kabi asarlarni mana shu sohada misol qilish mumkin. Qolaversa Anbar Otin, Nodira, Dilshod Barno kabi o'sha davr shoiralari ijodida ham ayollar masalasi ko'proq muammoli tarzda ko'tarib chiqila boshlandi. Hattoki, A.Vamberining "O'rta Osiyoga sayohat" nomli asari, Nalivkinning Turkiston ayollari haqidagi esdaliklarida ham XIX asr ijtimoiy-ma'naviy ahvoli gender masalalari nuqtai nazaridan ancha muammoli ekanligi qayd etilgan. Bunga asosiy sabab, Turkistonning XVIII-XIX asr tarixida ma'naviy hayotidagi dinga bo'lgan munosabatda ratsional va progressiv yondashuvdan ko'ra, aqidaparastlik kayfiyati kuchli bo'lganligidir. Bu davrda aholi o'rtasida islom dini to'g'risida mukammal bilimga ega bo'lmaslik tufayli, islom aqidalarini hayotga noto'g'ri tadbiiq etish holati ustun edi va oqibatda, ayollarga past nazar bilan qarash, ularni erlariga qaram ojiza deb baho berish ayol va erkak munosabatlarida ustunlik qila boshladi. Vaholanki, islom dinining haqiqiy manbaiga murojaat qiladigan bo'lsak, unda ayol kishini kamsitmaslik, ularga ozor bermaslik, o'z himoyasiga olish targ'ib qilinadi.

Fikrimizni aniq dalillar bilan oydinlashtirish maqsadida Qur'oni Karimning "Baqara" surasidagi 228-oyatni keltiramiz. Unda shunday deyiladi: "Ayollar uchun (belgilangan huquqlar) o'z me'yorida erkaklar (huquqi) bilan tengdir"²².

Ushbu oyatdan ma'lum bo'ladiki, Ollah ayollarni erlariga qul qilmay, balki erkaklarga qancha huquq bergan bo'lsa, shuni ayollarga ham ato qilgan. Yana shuni aytib o'tishimiz mumkinki, ayolning o'zi yoki oilasi uchun rizq topish maqsadida biror bir kasb bilan shug'ullanishi yoki qaysidir foydali ilmni egallashi uchun tahsil olishi islomda man etilmagan. Islom dini ayollarga mehnat qilishga ruhsat beradi va ba'zan jamiyat uchun foydali bo'lsa, ayollar mehnatidan foydalanishni zarur deb hisoblaydi. Xotin-qizlarni faol ijtimoiy hayotga jalb qilish ularning ma'naviy darajasini sezilarli ravishda oshirishga xizmat qiladi.

²² Quroni Karim. –T.: Islom Universiteti nashriyoti, 2001, 36-bet.

Ayol kishining xizmat lavozimlari bo‘ylab ko‘tarilishiga urinishi uning karerani yoki oilani tanlashga undaydi. Ayollar uchun bu faoliyat muqobillik asosida shakllanganligini sotsiologik so‘rovlar, ommaviy axborot vositalaridagi chiqishlar, ayollarni qat’iy intilishlariga o‘zlari bergan baholari yaqqol misol bo‘la oladi. Hozirgi vaqtdagi tahlillarga qaraganda bu muqobil tanlovning negizida yana boshqa omillar ham, ya’ni oila uchun yordam sifatida maishiy xizmat sohasining talab darajasida emasligi, oiladagi xo‘jalik ishlarining er va xotin orasida bir xil taqsimlanmaganligi, ayol kishining ijtimoiy statusida milliy mintalitetning o‘rni va boshqa omillar mavjudligi ma’lum bo‘lmoqda. Ayrim tadqiqotchilar izlanishlariga ko‘ra ayolning professional faoliyatidan keyin uydagi “ikkinchi smena” omili shu qadar murakkab muammoki, bu ko‘pincha hatto gender notengligi deb ham izohlanadi²³.

Bunday holatning sabablari sifatida quyidagi ijtimoiy vaziyatlar sanab ko‘rsatiladi:

Birinchidan, ayol kishi uy bekasi, “ro‘zg‘or qo‘riqchisi” degan tasavvurlarning ildizi juda chuqur. Ko‘p ayollar bu qoidani bolaligidanoq o‘rganadilar va “ayollikning” bir qismi deb tushunadilar.

Ikkinchidan, gender rollarini odatga ko‘ra ushlab turilishi ayol va erkak kishi orasidagi farqlashuvning tobora ko‘payishiga olib keladi. Masalan, ikkala jinsga mansub bo‘lgan kishilar bir xilda ovqat pishirishni o‘rganishlari yoki bo‘lmasa mashinkada matn terishlari mumkin, lekin, ko‘pchilik holatlarda bunday ishlarni ayollar bajarishi kerak deb hisoblaydilar. Amerikalik antropolog M. Midg‘alati bir misol keltiradi: erkaklar ovqat pishirishlari, to‘qishlari, qo‘g‘irchoqlarni kiyintirishlari yoki kalibri qushiga ovga chiqishlari mumkin. Bunday faoliyat agarda erkaklarniki hisoblansa, darhol muhim bo‘lib qoladi. Bordi-yu xuddi shunday faoliyatni ayollar yuritsa, unda bu ishlar uncha dolzarb, muhim bo‘lmay

²³. Qarang: : B.Po‘latov. Ayollarning ijtimoiy –iqtisodiy huquqlarini ta’minlashda prokuratura organlarining vazifalari // O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasining oliy o‘quv kurslari axborotnomasi. –T.: 2011, №1, 34-35-b.

qoladi²⁴. Demak, gender rollari jamiyatning ijtimoiylashuviga qarab qabul qilinadi. SHu tariqa individ jamiyatda o'z xulq atvorini erkak yoki ayol sifatida norma deb qabul qiladi.

Uchinchidan, erkaklar va ayollar o'rtasida tarixan shakllangan rollarning ham o'zni muhimdir. Sotsiolog T.Parsonsni ta'kidlashicha oiladagi mehnat taqsimotining jinslar o'rtasidagi bo'linishiga erkak kishining "instrumental" vazifasi (himoya, oilani moddiy ta'minlash, qo'riqlash va b.) ayol kishining esa boshqalarga nisbatan g'amxo'rlik hissi ko'proq sabab bo'ladi²⁵.

To'rtinchidan, "uy bekaligi" ayollar orasida ko'proq industrializatsiya boshlanganidan keyin paydo bo'ldi. Ish joylari va yashash manzillari turli xil masofalarda joylashganligi bunga omil bo'ldi. SHu tariqa erkaklar haq to'lanadigan ishlarda ishlab, ayollar esa uy bilan bog'liq bo'lib qoldilar. Uy-ro'zg'or ishlari to'laligicha ishlamaydigan ayollar zimmasida qoldi. Ayol kishi uyda qanchalik ko'p ish qilmasin, baribir "ko'rinmas" bo'lib qolaveradi va ko'p hollarda tan ham olinmaydi²⁶.

Darhaqiqat, uy ishiga haq to'lanmaydi va u "haqiqiy ish" hisoblanmaydi. SHu bilan bir qatorda uy ishlari ayollar tomonidan vaqt o'tkazish emas, balki aynan ish deb qabul qilinadi. Buning ijobiy va salbiy tomonlarini huddi ishlab chiqarish sohasiga solishtirsa bo'ladi: mehnat sharoiti, avtonomlik darajasi, ishning mazmuni va b.

Shunday qilib zamonaviy jamiyatda ham ayol kishi oldida oilani yoki ishni tanlash muammosi turadi. Hozirgi zamonda oila bilan ishni birgalikda olib borish haqida uch xil "tavsiyalar" berilmoqda bor: Bular quyidagilar:

1. kasbiy faoliyatga e'tibor berib, oiladan voz kechish va farzandlarsiz yashash;
2. oilaviy qadriyatlariga e'tibor berib, ishdan voz kechish;
3. kasbiy va oilaviy rollarni mohirona birgalikda olib borish.

²⁴ Qarang: B.Po'latov. Ayollarning ijtimoiy -iqtisodiy huquqlarini ta'minlashda prokuratura organlarining vazifalari // O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasining oliy o'quv kurslari axborotnomasi. -T.: 2011, №1.

²⁵ Современная западная социология.

²⁶ Дворкин.А.Геноцид, или Китайское бинтование ног //Антология гендерной теории/ Минск:Прописи, 2000.

Birinchi xildagi sotsial vaziyatda ayol kishining turli faoliyatlarga e'tibori zarurligi ta'kidlanadi, ammo shu bilan birga an'anaviy ayollik faoliyati rad etiladi, hatto befarzandlikka ham ijobiy qaraladi²⁷.

Ikkinchi xildagi sotsial vaziyat o'z o'rnini oilada, jamoatchilik faoliyatida namoyon qilishi mumkin bo'lgan ayollarga xosdir. Bu sotsial xildagi ayollar ko'pchilikni tashkil etib, xizmat karerasidan voz kechish ular uchun xosdir.

Uchinchi tipga ish o'rnini topgan, lekin shu bilan birga o'zini oilaga bag'ishlagan ayollarni kiritishimiz mumkin. Lekin oila yoki kraeraga o'zini bag'ishlash har doim ham engil kechmaydi. Ko'p holatlarda bunday holat psixologik noqulaylik bilan kechib, majburiy shaklda bo'ladi. Shuni ta'kidlash zarurki, ishga boshi bilan kirib ketish ayollarning emotsional hayotini susaytiradi, yakkalik hissini paydo qiladi, shaxsiy hayotda muammolar vujudga keladi. Ikkinchi tomondan oilaga o'zini bag'ishlagan ayollarning hammasi ham baxtli emaslar. Ularda keng sotsial muloqotning turlilik yo'qligi, o'z-o'zini ijtimoiy ijodiy namoyon etishining cheklanganligi, boshqa oila a'zolari tomonidan har doim ham to'g'ri baholanmaganligi va moddiy jihatdan ma'lum darajada tobelik bunga yaqqol misol bo'la oladi. Bizni uchinchi sotsial tipdagi ayollar tadqiqot ob'ekti sifatida qiziqtirgani bois, ularga qaytamiz. Avvalambor, uy bekasi va yaxshi ishchi rolini birgalikda olib borish juda qiyin. Bir vaqtning o'zida yaxshi ona, yaxshi uy bekasi, yaxshi xodim bo'lishga intilgan ayollar ko'p holatlarda stressga duchor bo'ladilar. Ayol kishining sog'ligiga ish jarayoning ta'siri u qanday ishligidan va uning hayoti shart-sharoitlaridan kelib chiqadi. Shart-sharoitlar bizni o'zimizga va atrof-muhitga bo'lgan munosabatimizni o'zgartiradi hamda fiziologik, psixologik jarayonlarda o'z ta'sirini ko'rsatadi. Masalan, ishlaydigan ayolning ish qobiliyatlari boshliq tomonidan yaxshi baholanmasa, ular ko'proq kasal bo'lishga moyil bo'ladilar. Aksincha, turmush o'rtog'i uy ishlarida yordam bersa, juda bo'lmaganda ayol samimiy muhitda ishlagan taqdirda uning salomatligiga ish jarayoni ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu ma'noda, ishlaydigan ayollar boshqalarga qaraganda oilaviy muhitdan ham, o'zlaridan ham ko'proq

²⁷ Келл.Г. Основы современной сексологии.-СПб:Питер,2000.

qanoatlanadilar. Ko'pincha ayollar o'zlariga pul kerak bo'lganida ishlaydilar. Sotsiologik tadqiqotlar shuni ta'kidlaydiki, iqtisodiy ahvolni yaxshilash maqsadida ishlayotgan ayollar pulga muhtoj bo'lmagan holatlarida ham o'z ishlarini tashlamaslikka harakat qiladilar. Ayol kishining professional karera pog'onalari bo'ylab ko'tarilishida bir qancha qiyinchiliklar mavjud. Ko'pincha ish beruvchi ayol kishini ishga qabul qilayotganida uni uydagi vazifalari va oilaviy majburiyatlari yuqori lavozimlarni egallashiga halaqit beradi deb o'ylaydi. Shunday fikr qat'iy shakllangan. Hatto ayol kishini farzandlari ko'payganidan keyin u xuddi oldingi shijoat bilan ishlasada, boshliq uni baribir oldingiga qaraganda yomon ishlaydi deb o'ylaydi²⁸.

Shu o'rinda hozirgi zamon ijtimoiy fanlarida keng tarqalgan gender ta'limiga e'tibor qaratish o'rinlidir. Ma'lumki, gender birinchi galda ijtimoiy taraqqiyotning erkaklar va ayollarda o'z aksini topishi jarayonlarini o'rganadi. Gender konsepsiyasi keng ma'noda erkaklar va ayollar o'rtasidagi madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy farq ularning uydagi, ish joyidagi va umuman jamiyatdagi mavqeiga qanday ta'sir etishini o'rganadi, tadqiq etadi. Ushbu sotsial jarayon tez-tez o'zgarib turgani bois, gender munosabatlari ham ko'pincha muayyan ijtimoiy vaziyatga bog'liq bo'ladi. Bu gender munosabatlari jamiyat, etnik guruhlar, sotsial tabaqalar va qatlamlar, madaniyat va yosh guruhlariga mos holatda rivojlanadi, demakdir. Genderga xos "nikoh" rivojlanish jarayonida turfa xil hududiy munosabatlarni ham o'z e'tiboridan chetda qoldirmaydi. Gender yondashuvi zamonaviy jamiyatning barqaror rivojlanishiga oid dasturlar ayollar va erkaklarning o'zaro munosabatlariga ta'sir o'tkazishi mexanizmlarini ham anglash imkonini beradi. Buni biz masalaning halqaro jihatida ham ko'rishimiz mumkin. Ma'lumki, 1995 yilda 189 dan ortiq mamlakat ayollarning haq-huquqlarini ta'minlash va gender tengligiga erishish borasida Pekin harakatlar platformasiga muvofiq ish yuritish majburiyatini oldilar. Bu Pekin harakatlar platformasida belgilangan maqsadlarga erishish ya'ni, ayollar va erkaklarning barcha sohalar va miqyoslarda, jumladan qonunchilik va siyosatdagi teng ishtirokini ta'minlash

²⁸ BMTning boshqaruvdagi ayollar muammolari haqidagi hisobotidan ma'lumotlari.

yoʻlidagi muhim qadam boʻlganligini anglatadi. Albatta, genderni rivojlantirish borasidagi majburiyatlar BMT xotin-qizlar masalasiga oʻz munosabatini tubdan oʻzgartirganidan dalolat beradi. Zero, aytish mumkinki, xotin-qizlar masalasi endilikda rivojlanishning tarkibiy qismiga aylandi, gender esa shunchaki nuqtai nazar emas boʻlmay qoldi. Jamiyat hayotida gender yondashuviga har qanday siyosatning mohiyati koʻrib chiqilayotganida rivojlanish dasturi uchun ahamiyatli boʻlgan boshqa masalalar qatoridagi muhim soha sifatida qaralmogʻi lozim.

Xoʻsh bundan maqsad nima?

Bundan maqsad, avvalo xotin-qizlar uchun ishlash, taʼlim olish, davolanish va siyosiy miqyosda qarorlar qabul qilish jarayonida teng imkoniyatlar yaratish, ayollarning rivojlanish bilan bogʻliq dasturlarning samarasidan foydalanishlari imkoniyatlarini oshirishdan iboratdir. Shu orqali kengroq miqyosda manfaatdorlik va adolatparvarlik jamiyat hayotiga kirib keladi. Oʻzbekiston Respublikasi taʼlim tizimida mustaqillik yillarida ham tub oʻzgarishlar vujudga kelmoqda. Milliy qadriyatlarni tiklash va milliy maʼnaviyatni yuksaltirish, ayniqsa, sharqona odob-axloq anʼanalariga eʼtiborni kuchaytirish shular jumlasidandir. Oʻlkamizda buyuk rejalar va bunyodkorlik ishlari tarixiy anʼana va tajribalarga asoslanib aql-idrok va sabr-qanoat hamda sobitqadamlik bilan amalga oshirilmoqda. Shu oʻrinda, yurtboshimiz I. Karimovniig: «Shuni aytishimiz iozimki, xalqimiz maʼnaviyatini yuksaltirishda milliy urf-odatlarimiz va ularning zamirida mujassam boʻlgan mehr-oqibat, insonni ulugʻlash, tinch va osoyishta hayot, doʻstlik va totuvlikni qadrlash, turli muammolarni birgalashib hal qilish kabi ibratli qadriyatlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda» degan fikrlarini eslatishni oʻrinli deb hisoblaymiz.

Shuni taʼkidlash lozimki, insonga buyuk siymo sifatida qarash, uni yuksaklikka koʻtarish Sharq falsafasining oliy qoidalaridan boʻlib kelgan. Shu oʻrinda Sharqda ayol, ona tushunchasi ulugʻlanib, hamisha u muqaddas hilqat sifatida eʼzozlanib kelingan. Tabiiyki, Sharq ayoli dunyo sivilizatsiyasiga munosib hissa qoʻsha olgan. Markaziy Osiyo xalqlarining yozma manbalari, ayniqsa

ularning ma'naviy jihatlarini o'zida aks ettirgan manba - «Avesto»da ayollarga yuksak hurmat va ehtirom keltirilgan. «Avesto»dan ma'lum bo'ladiki, o'sha davr ayollari ham oilada va umuman jamiyatda o'z o'rinlariga ega bo'lganlar. Bunda, ayolning oila va jamiyatdagi o'rnini, erkaklar bilan munosabat mezonlari aniq qoidalar bilan belgilangan. Bu qoidalar teran mushohada va adolatga tayanganligi sezilib turadi.

Tabiiyki, «Avesto»da oila erki, xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rnini, onaning xonadondagi mavqei masalalari ijtimoiy munosabatlar bilan bog'liq tarzda qayd etilgan, izohlangan. Zardushtiylikda qiz bola tarbiyasiga alohida e'tibor berilgan. Zardusht ta'limotida, har bir ota-ona o'z qiziga balog'at yoshiga (15 yoshiga) etgunga qadar barcha hunarlari, avvalo, ro'zg'or tutishni mukammal o'rgatish, e'tiqodli, pokiza, ahloqli qilib tarbiyalash lozim bo'lgan. Bunday tarbiya ota-ona ishini engillashtiradi.

Zardusht «ayol huquqini tahqir etmoq yomon amaldir, u nodonlik belgisidir» deydi²⁹. «Avesto»da ta'kidlanadiki, o'g'il bolalarga nisbatan ham qiz bolalar ilmu donish o'rganishga kirishsinlar. Zeroki, ular ota-ona yoshida bo'lgan vaqtlarida ota xonadonini tartibga solib, ziynat berib tursa, turmush qurib borgach, bolalar tarbiyasi bilan, kelajak nasl ta'limi bilan mashg'ul bo'lmoqlari lozim bo'ladi³⁰. Zardushtiylikda ko'pxotinlik man etilganligini ham ta'kidlab o'tish zarur. SHunisi ham xarakterliki zardushtiylik odatiga ko'ra qiz balog'atga etgach, uni turmushga berish jamoat va ota - ona izmida bo'lsa ham qizning roziligi so'ralgan. Kaxudo (er) va Nadbonu (xotin) mashvaratsiz, o'z roziligisiz qizni erga berish huquqiga ega bo'lmaganlar. «Avesto»dagi quyidagi fikr ayol zotiga jamiyatda, oilada, qolaversa kishilik jamiyatida tutgan o'rniga berilgan eng adolatli bahoga o'xshaydi: «Dastlabki kundayoq, Axuramazda ayollarga buyuradi; Ey ayol! Sen e'tiqodli va pahlavon erkaklarni vujudga keltirib, mehr to'la og'ushingda parvarish et, deb yaratdim. Tokim ular nodurustlik va nopoklik ildizini er yuzidan

²⁹Avesto. –T.:Shaq, 2000. -48-bet.

³⁰Avesto. –T.:Shaq, 2000. -48-bet.

yo‘qotsinlar!»³¹ Zardushtiylar dinida ayollar nomi ham ramziy mohiyatga ega ekanligi izohlangan. Masalan, u Rita Siyabonu yoki Oshabonu deb atalgan. Bu-poklik va rostlik nuri demakdir. Tarix sahifalariga nazar tashlar ekanmiz, ijtimoiy hayotning barcha sohalarda erkaklar bilan bir qatorda ayollar buyuk jasorat sohiblarining sifatida tarannum etib kelinganligining guvohi bo‘lamiz. Ayollar orasidan shavkatli hukmdorlar, oqila maslahatgo‘ylar, etuk shoirlar, zabardast olimalar, zukko san‘atshunoslar etishib chiqqan. Buni Prezidentimiz I. Karimov o‘zining 1998 yil 5 dekabrda so‘zlagan nutqida ehtirom bilan tilga oladi. «Xalqimiz o‘zining jasorat va matonati, aql-zakovati, nafosati va nazokati bilan tarixdan o‘chmas iz qoldirgan To‘maris, Bibixonim, Gulbadanbegim, Zebuniso, Nodira, Uvaysiy, Anbar otin va boshqa yuzlab ayollarimizni hamisha ehtirom bilan tilga oladi.»³²

To‘maris-aqlli, dono, tadbirkor, bilimdon ajdodlarimizning tipik obrazi hisoblanadi. U -hukmdor. Eron podshosi johil Kirni enggan matonatli ayol. Uning nomi butun dunyoni tutgan, tillarda doston bo‘lgan. U dunyoning ulug‘ shoirlari Dante, Shekspirning asarlarida buyuklik, mardlik, vatanparvarlik timsoli bo‘lib kuylandi. Temur va temuriylar sulolasiga mansub bo‘lgan Saroymulxonim, Gavharshod begim, Shodi Mulk Xonim, Xadicha begim, mumtoz Mahal begim, Zebuniso va boshqa temuriy malikalarning dovrug‘i butun dunyoga ketgan. Ularning buyuk xizmatlari to‘g‘risida ko‘plab afsonalar va rivoyatlar tarqalgan. Saroymulxonim zamonasining yuksak idrokli, farosatli, aql-zakovatli vakilasibo‘lgan. U mamlakatning siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotidan yaxshi habardor bo‘lib, saltanat ishlarida dono maslahatchi bo‘lgan. Buyuk Temur uning oqilona maslahatlariga ko‘p hollarda amal qilgan. Boburshohning uchinchi qizi Gulbadanbegim- «Humoyunnoma» nomli muhim tarixiy asarini yozgan. Bu asar Boburshoh hamda Humoyunning hayoti tarzi va sarguzashtlarining muxtasar tarixi bo‘lib, mantiqan «Boburnoma»ning davomidir.

³¹Avesto. –T.:Shaq, 2000. -52-bet.

³²I. Karimov. 1998 yil 5 dekabr Konstitutsiyasining olti yilligiga bag‘shlangan majlisda so‘zlagan nutqidan. Ayolga ehtirom. –T. O‘zbekiston, 11-bet.

Zebuniso Begim ham o‘z zamonasining oqila va zukko qizi, ziyolisi edi. U fiqh, mantiq, falsafa, tarix fanlarini puxta o‘zlashtirgan. Arab va fors tillarida ijod etgan. Gavharshodbegim - yuksak didli, farosatli, oqila, tadbirkor, husn bobida benazir ayol bo‘lgan. SHohruh Mirzo ul zotning donoligiga tan berar, saltanat ishlarini boshqarishda oqilona va tadbirli maslahatlariga ehtiyoj sezardi. SHuning uchun ham saltanatga doir ko‘plab ishlar mamlakatning e‘tiboriga havola qilingan. Malika Shohruh Mirzoning harbiy yurishlarida ishtirok qilar ekan, shahzodalarning fe‘l-atvori va harbiy boshliqlarining hatti -harakatlaridan voqif bo‘lib turar edi. Ayniqsa uning Hirotdagi ko‘pchilik qurilish ishlarida rahnamolik qilganligi ta‘kidlangan. Hirotda uning o‘zi ikkita madrasa qurdirgan. Nodira she‘rlar yozib, mukammal dovon yaratishga muyassar bo‘ldi. Umr yo‘ldoshi shoh Amir Umarxon vafotidan so‘ng davlat ishlarida ham bosh-qosh bo‘ldi. U islom diniga samimiy e‘tiqod qo‘ygan, tasavvufga ham mehr bog‘lagan shoira edi. Uning g‘azallari to hozirgacha tillardan, kuylardan tushmaydi, ohangini yo‘qotmagan. Tarixiy jarayonda o‘zbek ayolining o‘rni haqida so‘z yuritir ekanmiz, islom dini bilan bog‘liq qarashlar haqida ham aytib o‘tmoq joizdir. Islomda ayol kishiga hurmat, e‘tibor yuksak darajaga ko‘tarilgan. Zero payg‘ambarimiz ham ayol zotiga hurmat va ehtiromda bo‘lib, «Sizlardan eng yaxshilaringiz o‘z ahli ayolingiz bilan muomala qilgan kishidir. Men o‘z ahli ayollarimga sizlarga bo‘lganimdan ham ko‘ra xushmuomiladaman.»³³ deganlar. Yana «Eng komil mo‘minlar xushxulq va oilasi bilan lutf bilan munosabat qiladiganlaridir».

Xulosa qilib aytish mumkinki, bugungi kunda yurtimizda dolzarb sanalayotgan gender tadqiqotlarini shakllantirishning O‘zbekiston bilan bog‘liq o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Eng avvalo, hududimizda amaliyotni o‘rganish sohasida tadbiriq etilayotgan gender nazariyalarini milliy xususiyatlarini o‘rganishga qanchalik kirib borilganligini e‘tiborga olish lozim. Shu bilan birga, O‘zbekistondagi hozirgi paytda ma‘lum qiyofani hosil qilgan gender munosabatlari va muammolari o‘zining tarixiy kontekstidagi tadqiqotlarini kutib turibdi. Va aynan, shu masalalar yuzasidagi yondashuv yurtimizda olib borilayotgan gender

³³A. Fitrat. Oila.-T.: Ma‘naviyat, 2000. 36-bet.

tadqiqotlarining jamiyatdagi ahamiyatini va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Darhaqiqat, ayol va uning jamiyatdagi o'rnini faoliyati masalasi bugungi kungacha turli-tuman qarashlar, ta'limotlar bilan boyitib kelindi. SHuni ta'kidlash lozimki, bu qarashlarning barchasida ayol muqaddas bir hilqat sifatida talqin etiladi. Uning oila va jamiyatning muvozanatini saqlovchi tarozu va oqila siymo ekanligi doimo e'tirof etib kelinadi.

Yurtimizda xotin-qizlarning faolligini oshirish, qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash, erta nikohning oldini olish borasida ishlab chiqilgan dasturlar asosida joylardagi xotin-qizlar boshlang'ich tashkilotlari ham samarali ish olib bormoqda.

II BOB

Jamiyat taraqqiyotida xotin-qizlar ishtirokini monitoringini axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etish

II.1. Jamiyatning ijtimoiy rivojlanishida axborot kommunikatsion texnologiyalarining o'рни

O'zbekiston Respublikasining 2003 yil 11 dekabrda 560-II son "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonuniga binoan quyidagicha ta'rif berish mumkin. Axborot resurslari - alohida hujjatlar, hujjatlarning alohida to'plamlari, axborot tizimlaridagi (kutubxonalaridagi, arxivlardagi, fondlardagi, ma'lumotlar banklaridagi va boshqa axborot tizimlaridagi) hujjatlar va hujjatlarning to'plamlari. Ommaviy axborot – bunga cheklanmagan doiradagi shaxslar uchun mo'ljallangan hujjatlashtirilgan axborot, bosma, audio, audiovizual hamda boshqa xabarlar va materiallar kiradi. Axborot tizimi - axborotni to'plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish hamda undan foydalanish imkonini beradigan, tashkiliy jihatdan tartibga solingan jami axborot resurslari, axborot texnologiyalari va aloqa vositalari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Aholiga kutubxona-axborot xizmatini ta'minlashni tashkil etish» to'g'risidagi farmonida ham, bugungi kunda axborot madaniyatini shakllantirishda kompyuter texnologiyalarining o'рни yuqori ekanligi ta'kidlangan. Bizning nazarimizda fuqarolarning axborot madaniyati, madaniyat va san'at yo'nalishidagi oliy va o'rta-maxsus ta'lim muassasalarida kutubxona-bibliografiya bilimlari asoslarini o'rgatishni taqozo etadi. Shaxsda axborot madaniyatini shakllantirish jarayoni jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy jarayonlar, eng avvalo ma'naviyatni shakllantirish bilan chambarchas bog'liq. Shaxs ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatida axborot madaniyatini barqaror shakllantirish uchun ta'lim jarayonida axborot bilan ishlash ko'nikmalarini doimiy ravishda shakllantirib borish lozim. Bu erda barcha mutaxassislik va umumgumanitar fanlar o'qituvchilarining o'рни yuqori bo'lib, ular talabalarda axborot qidirish va olish ko'nikmalarini mustahkamlashga yaqindan

yordam berishlari lozim. Buning uchun ular xotin-qizlarning kerakli qo‘llanmalarni qidirib topishga rag‘batlantirishlari, tavsiya etilayotgan adabiyotlar miqdorini oshirib borilishi lozim. Axborot madaniyatini shakllantirishda madaniyat uylarning axborot-resurs markazlari ham ishtirok etishlari mumkin. Buning uchun axborot resurs markazlarida axborot madaniyatini shakllantirish bo‘yicha o‘quv-uslubiy adabiyotlar bilan birga axborot-resurs markazlarining tuzilmasi, uning bibliografik ma‘lumotlar tizimi, turli axborot manbalari, elektron kataloglar va kartotekalar bo‘yicha ma‘lumot beruvchi tizimlar haqidagi ko‘rgazmali vositalar mavjud bo‘lishi lozim. Aniq ma‘lumotlar asosida risola yaratish va uni mahallalar orqali butun mamlakat hududiga tarqatilsa, bu risola mahalla qoshidagi xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyati uchun asosiy dasturiy amal bo‘lib xizmat qiladi.

Shuni ta‘kidlash lozimki, ta‘limni axborotlashtirishning pedagogik jihatlarining ijobiy holatlari bilan birga salbiy holatlari ham mavjud.



Axborotning ijobiy tomoni shundan iboratki, o‘z vaqtida olingan to‘g‘ri va sifatli axborot turli sohalarda aniq qaror qabul qilish imkonini beradi. To‘g‘ri sifatli axborot insonlar, ayniqsa yoshlarning dunyoqarashini boyitishi, bilim olishi,

zamonaviy bilimlar egasi bo'lishi imkonini beradi, zero Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, farzandlari sog'lom yurt qudratli bo'lur.

- Ta'lim jarayoni qatnashchilarining axborot ta'minotining keskin oshishi.
- Pedagog va o'quvchining kreativ qobiliyati rivojlanadi va uning asosida o'quvchining mustaqil ta'lim olish ishtiyoqi oshib boradi.
- O'quvchilarning bilimni baxolash va xisobini olish jarayonlarini avtomatlashtirish imkoniyati.
- O'quv materiallarini ifodalanish jarayonlari mavjudligini va o'quv vaqtini iqtisod bo'lishi.
- O'quv jarayonlarini samarali boshqarishni avtomatlashtirish.

Jamiyatni axborotlashtirish: mehnat, ilmiy tadqiqot, loyiha, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, aholiga xizmat ko'rsatishni avtomatlashtirish, tashkiliy-iqtisodiy boshqarishni avtomatlashtirish, ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini axborotlashtirish kabi sohalarni o'z ichiga oladi.

Jamiyatda axborot ham bilim manbai ham eng asosiy muloqot vositasi bo'lib hisoblanadi. Jamiyatni axborotlashtirishda radio, televidenie, ommaviy-axborot vositalari va Internet tizimining ahamiyati juda yuqoridir. Har kim har doim biror ishni bajarish yoki biror maqsadga erishish uchun axborotdan foydalanadi. Har bir inson ob-havo prognozini, transport vositalari qatnovi jadvalini, bank va biznes ma'lumotlarini hamda kundalik yangiliklardan habardor bo'lishga muhtojdir. Agarda inson kundalik axborotlar va yangiliklardan xabardor bo'lmas ekan u jamiyatdan uzilib qolishi muqarrar.


Axborotning salbiy tomoni shundan iboratki, hozirgi kunda ayrim g'arb davlatlaridan kirib kelayotgan bizning milliy qadriyatlarimizga yot bo'lgan axborotlar va qarashlar hamda insonlar ongini zaharlovchi ma'lumotlar ham mavjud. Ayniqsa bunday ma'lumotlar Internet tarmog'i orqali keng tarqalmoqda. Internet va SMS xabarlar orqali tarqalayotgan jamiyatimizga, qadriyatlarimiz va an'analalarimizga, davlatchiligimizga zid bo'lgan nojo'ya axborotlar yoshlarning ongini zaharlashi va ularni noto'g'ri yo'llarga boshlashi mumkin. Bunday

holatlarning oldini olish bizning vazifamizdir. Har doim axborotdan o‘rinli va to‘g‘ri foydalanish zarur.

- Axborotlashtirilgan ta‘lim tizimidagi ma‘lumotlarni ko‘p xollarda amaliyotga tadbiiq qilish murakkabligi.
- Axborot maydonining kengligi qidiruv tizimidan foydalanish murakkablashtiradi. Bu xolat asosiy ta‘lim materialidan og‘ishni keltirib chiqaradi.
- Masalalar doimiy ravishda kompyuter yordamida echiliganda, foydalanuvchining intellektual saloxiyatni pasayishi kutiladi.

O‘qitish, ilm-fan va texnika yutuqlari namoyishi. Internet tarmog‘ida o‘qitish uchun mo‘ljallangan portallar keyingi vaqtlarda keskin ko‘paydi. Ziyonet portali buning yaqqol namunasi. Ziyonet jamoat ta‘lim tarmog‘i 2005 yil hukumat qarorlariga muvofiq tashkil topgan. Ziyonet tarmog‘ining asosiy maqsadi ta‘lim tizimida respublika yoshlari hamda ta‘lim oluvchilarning bilim olish jarayonida axborot-kommunikatsiya xizmatlarini tadbiiq etishdir. Ziyonet tarmog‘i Resurs markazining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: Ta‘lim muassasalarini ulash monitoringi; Veb-texnologiyalar orqali axborot resurslardan keng qamrovda va xavfsiz foydalanish; Axborot-ta‘lim resurslarini birlashtiradigan texnologik maydonchani tuzish va rivojlantirish.

Yoshlarni, o‘qituvchilarni ta‘lim muassasalari va ta‘lim sohasiga bog‘liq yoki qiziqqan boshqa ijtimoiy qatlamlarni o‘zaro birlashtiradigan virtual jamiyatni yaratish.



Ta'lim va ijtimoiy muhim ahamiyatga ega bo'lgan loyihalarning Uzneta qatnashishi maqsadida, Ziyonet tarmog'ining resurs markazi tomonidan ta'lim muassasalari va ijtimoiy muhim ahamiyatga ega bo'lgan loyixalar uchun bepul xosting xizmati taqdim etiladi. Hukumat qarorlariga muvofiq barcha ta'lim muassasalari (ulanish ob'ektlari) Ziyonet yagona axborot-ta'lim tarmog'ida birlashishlari, ya'ni Ziyonet tarmog'iga birlashish dasturi doirasida internetga ulanishlari shart. Ma'lumki, biz yashayotgan XX asr insoniyat uchun ulkan o'zgarishlar olib kelgan globalizatsiya jarayonlari bilan bir qatorda keng ilmiy-texnik kashfiyotlar va umumiy hayot tarzining keskin o'zgariganligi bilan o'rin tutmoqda. Bugungi kunda, O'zbekistonda xotin-qizlar huquqlariga oid juda ko'plab qonun va hujjatlar, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari qabul qilinib, ular amalga oshirilib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida "xotin – qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar" deb qonuniy belgilab qo'yilgan. Davrimizning eng muhim voqealari ichida ayollarning erkaklar bilan bir qatarga chiqqanligi, xotin – qizlarga nisbatan qarashlarning tubdan o'zgariganligi va endilikda nafaqat oilaviy hayotda, balki davlat va jamiyat hayotida ham ayollar va erkaklarning maqomi tenglashganligini

alohida ta'kidlash lozim. Xotin – qizlarning ijtimoiy va siyosiy faolligini aks ettiradigan ommaviy axborot vositalarida xotin- qizlar muammolari, ularning yechimi, mamlakat siyosiy hayotida faoliyat yuritayotgan ayollar haqidagi ma'lumotlar chekka va uzoq hududlarda istiqomat qilayotgan xotin- qizlarga to'liq yetib bormayotganligi, shuningdek, ular tomonidan bu sohagda yetarlicha tashabbuslar ham ko'rsatilmayotganligi ko'zga tashlanmoqda. Bu holat esa o'z-o'zidan xotin- qizlar uchun vaqtdan yutqizish, yetarlicha siyosiy faollik namoyon qila olmaslik kabi holatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Albatta, axborotga ega bo'lish va uni "hazm qilish" borasidagi bunday holat mamlakatimiz xotin- qizlarining samarali faoliyat olib borishiga to'sqinlik qilayotgan omillardan biri bo'lib qolmoqda. Bugungi kunda xotin – qizlarning ijtimoiy va siyosiy faolligiga turtki beradigan tadbirlar oz emas. Ularning orasida mamlakat rahbari Islom Karimov tashabbusi bilan har yili o'tkazib kelinadigan "Tashabbus" ko'rik-tanlovlari, shuningdek, Respublika Forum jamg'armasi tomonidan o'tkaziladigan turli tadbirlar, Respublikamizdagi iste'dodli yoshlarning ijtimoiy faolligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, milliy istiqlol g'oyalari va madaniy-ma'rifiy qadriyatlarni hayotga tadbiiq etishdagi ibratli faoliyatini rag'batlantirishda alohida o'ringa ega bo'ldi. Barkamol xotin-qizlar avlodini voyaga yetkazish hamda mamlakat Prezidentining "Zulfiya" nomidagi Davlat mukofotini ta'sis etish bo'yicha takliflarni qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi 1999-yil 10-iyundagi PF-2326-son Farmoni ijrosi bo'yicha sezilarli ishlar amalga oshirildi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan 2000-yilda iste'dodli yoshlarning jamiyatimiz ma'naviy hayotini yuksaltirishdagi o'rni va ahamiyatini inobatga olib, musiqa, matn va ijro mahorati bilan kishilar qalbiga yo'l topa oladigan, ezgulikka chorlovchi, iroda va imon-e'tiqodini mustahkamlashga xizmat qiladigan asarlar yaratishda faollik ko'rsatayotgan iqtidorli yoshlarni rag'batlantirish maqsadida "Nihol" mukofoti ta'sis etilib, bu yo'nalishdagi ishlar jonlandi. Bunday tashabbus va harakatlardan jamoat tashkilotlari, siyosiy partiyalar ham chetda turganlari yo'q. Xususan, "Milliy Tiklanish" demokratik partiyasi tomonidan tashkil qilinadigan "Eng faol siyosatchi ayol" konkursi, boshqa siyosiy partiyalarning ayollar

qanotlari tashabbusi bilan davriy ravishda tashkil qilinayotgan anjumanlar jadallik bilan olib borilmoqda.

II.2.Xotin-qizlar faoliyatini takomillashtirishda pedagogik va kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish

V.P. Bospalkoning ta'rifiga ko'ra «Pedagogik tizim ma'lum shaxs sifatlarini shakllantirishga tartibli, aniq maqsadni ko'zlab va oldindan o'ylab pedagogik ta'sir etishni vujudga keltirish uchun zarur bo'lgan o'zaro bog'liq vositalar, usullar va jarayonlar yig'indisidir».



Pedagogika so'zi qadimgi grek «Paydagogs» so'zidan olingan bo'lib, «bola etaklash» ma'nosini anglatadi. Bugungi kunda «bola etaklash» so'zi pedagogik faoliyatni to'laqonli anglatmasada, yosh avlodni yangi jamiyat sari etaklash, uni ushbu jamiyatning shaxsi sifatida tarkib toptirish, yangicha ijtimoiy ong,

munosabatlarni shakllantirish kadrlar tayyorlash milliy modelining tarkibiy qismi bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimining asosiy faoliyati hisoblanadi. Albatta, pedagogik faoliyat ko'pqirrali, jamiyat taraqqiyoti, uning kelajagini ko'ra biluvchi va shaxsni ushbu jamiyatga tayyorlovchi faoliyatdir. Ma'lumki, biz orzu qilgan jamiyat, islohatlardan ko'zlangan asosiy maqsad respublikamizda demokratik jamiyatni barpo etishdan iborat. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini maqsad va vazifalari demokratik jamiyatimiz uchun yangicha ijtimoiy qarashlarga ega bo'lgan shaxsni shakllantirishga qaratilgan. Binobarin shaxs - islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Demak, kadrlar tayyorlash milliy modelining tarkibiy qismi bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimida shaxsni demokratik jamiyatga tayyorlashda pedagogik jarayonda demokratik munosabatlarni qaror toptirish ijtimoiy zarurat ekanligini anglagan holda ta'lim tarbiya jarayonini takomillashtirish bosh vazifa bo'lib qolmoqda.

Pedagogik faoliyatda shaxsga bo'lgan demokratik munosabatlarni tarkib topitirishda zamonaviy pedagogning ijtimoiy bilimlari asosida shakllangan demokratik munosabati asosiy rol o'ynaydi. Pedagogning ta'lim – tarbiya jarayonini demokratlashtirishda, insonparvarlashtirishda qanday bilim, ko'nikma, malakalarga ega bo'lishi lozim? Pedagogika fanida ushbu masala etarli ravishda yoritilmagan darslik va qo'llanmalarda ta'lim tamoyili sifatida qayd etilgan xalos. Bo'lg'usi pedagogning kasbiy shakllanishida quyidagi kasbiy mezonlarni ustivor deb hisoblaymiz: ijtimoiy pedagogik qarash, demokratik munosabat, madaniyat, pedagogik mahorat. Binobarin pedagogik faoliyatda ijtimoiy ong kasbiy faoliyatning ustivor yo'nalishi bo'lib, bo'lg'usi pedagog biz barpo etayotgan jamiyatni aniq tasavvur qila olishi lozim. Ushbu yo'nalishda pedagogning ijtimoiy – pedagogik qarashlari Prezidentimiz I.A.Karimov asarlari, davlat me'yoriy hujjatlarini chuqur tahlil qilish asosida tarkib topib boradi. Ayniqsa, Respublikamiz taraqqiyotining bosh dasturi «O'zbek modeli» ni mukammal bilish asosida ushbu jamiyatimizning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy – ma'rifiy islohotlarini to'laqonli anglash va yoshlar tafakkurini zamonaviy talablar asosida tarkib toptirish dolzarbligini his qilish va uning faol ishtirokchisiga aylanish pedagogik

faoliyatda bosh mezon hisoblanadi. Pedagog ma'naviy – ma'rifiy yo'nalishdagi islohotlarning amalga oshiruvchisi bo'lib uning oldida belgilangan vazifalari bilan tanishaylik:

1. Ma'naviy qadriyatlarni ilm – fan va taraqqiyot yutuqlari bilan boyitish. Din va tarixni soxtalashtirishga, ulardan siyosiy maqsadda foydalanishga yo'l qo'ymaslik;

2. Yurtdoshlarimizni ma'naviy yangilanish va islohotlar jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish;

3. Kuch va salohiyatni ijtimoiy hamkorlik va millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglikka xizmat qildirish;

4. Ijtimoiy qatlam, siyosiy kuch va harakatlarning intilishlarini uyg'unlashtiruvchi g'oyalar Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligini yurtdoshlarimiz maqsadiga aylanishga erishish;

5. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish, ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish;

6. Milliy qadriyatlar, til, madaniyat, diniy e'tiqod, urf-odat va an'analarni hurmat qilish.

Ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning ijtimoiy mohiyatini pedagogning chuqur anglashi pedagogik kasbiy burch, vazifalarini oydinlashtiradi, pedagogik faoliyatning jamiyatdagi rolini, mohiyatini anglatadi.

Jamiyatimizda yosh avlodni demokratik jamiyatga tayyorlashda bo'lg'usi pedagog kadrlarning huquqiy ongi, huquqiy madaniyatini tarkib toptirish pedagogik kasbiy faoliyatida demokratik munosabatlarni qaror topishida ikkinchi ustivor yo'nalishi deb qaraymiz. Mazkur ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan global masalalarni hal etishda jamiyatimizning har bir jabhasida pedagogik texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyatga ega deb hisoblaymiz. Jumladan, xotin-qizlar faoliyatini takomillashtirishda pedagogik va kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish bugungi kunda dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizning turli chekkalarida istiqomat qilayotgan xotin –qizlarning siyosoy-huquqiy, madaniy –ma’rifiy hamda ijtimoiy jihatdan kamol topishlari uchun pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanishga ehtiyoj tug’ulmoqda. Poytaxtimizda sog’lom hayot tarzi, farzand tarbiyasi, reproduktiv yoshdagi xotin-qizlarning tibbiy savodhonligiga bag’ishlangan turli anjuman, bahs-munozaralarga boy davra suhbatlarida ko’tarilayotgan turli masalalarga oid ilg’or g’oya va texnologiyalar respublikamizning chekka hududlarigacha yetib bormoqdam?

Yetib borgan taqdirda ham xotin-qizlar tomonidan ma’lumotlarni qay tarzda o’zlashtirilishi nazoratga olinganmi? Bu savollarga yechim topish uchun pedagogik texnologiyalar imkoniyatlariga suyanamiz:

”KASKAD” USULI

Poytaxtimizda o’tkaziladigan seminar treningda Respublikamizning har bir viloyati va Qoraqalpog’iston respublikasidan ikki nafar vakil -xotin –qiz jalb etiladi va seminar treninglar o’tkaziladi. Turli dolzarb masalalarga bag’ishlangan seminar treningda faol ishtirok etgan vakillar o’z viloyat markazlarida tumanlardan tashrif buyurgan vakil xotin-qizlarga seminar –terningda orttirgan bilim va ko’nikmalarini yetkazadi. Shu tariqa tyutor, ya’ni o’qituvchi -murabbiylar tayyorlanadi. Chekka hududlarda istiqomat qilayotgan xotin-qizlarga kerakli bilim va ko’nikmalarga ega bo’lishlariga imkoniyat yaratiladi.

Muammoli vaziyat

Ma’naviyatni shakllantirishda ayniqsa talaba qizlarning ma’naviy-axloqiy yetukligida pedagogik texnologiyalarning ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi xususiyatlarini ham inobatga olish zarur. Chunki pedagogik texnologiyalarning tarbiyaviy xususiyatlari-aqliy, axloqiy, yetik, ma’naviy, ruhiy tarbiya jarayonlariga ta’sir ko’rsatsa, rivojlantiruvchi xususiyatlari shaxsning intellektual salohiyatini oshiradi, undagi sezgi, diqqat, xotira, tafakkur, idrok, temperament, faoliyat,

hissiyot va iroda kabi psixo-pedagogik jarayonlarni rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi, talabalarda faollik, tanqidiylik, samaradorlik, erkin fikrlilik va teran tafakkurni rivojlantiradi.

Biz quyidagi o'qitish jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan ba'zi bir treninglar (texnologiyalar)ga tavsifnoma berib, ba'zilarini o'tkazish tartibi to'g'risida metodik tavsifnoma berib o'tamiz.

Trening mashg'ulot:

Muammoli vaziyatlarni hal qilish mashqlari. Muammoli vaziyat: Viloyatning uzoq tumanidan o'qishga kelgan 1-kurs talabasi zararli odatlar ta'siriga tushib qoldi va oqibatda talabalik safidan chiqarish holati yuzaga keldi.

Faoliyatni tashkil qilish bosqichlari:

1. "Aqliy hujum" orqali muammoni aniqlash;
2. "Nima uchun?" metodi asosida vaziyatni aniqlashtirish....
3. "Qanday" ierarxik diagrammasi orqali yechimni topish.

"Aqliy hujum"


1. Vaziyatni kelib chiqishiga sabab bo'luvchi zararli odatlar, ularga yo'liqtiruvchi omillar?
2. Vaziyatdan chiqishning qonuniy va ma'naviy asoslari?
3. Muammoning hal qilinishi yo'llari? Yakka tartibda yoki guruhlarda muammo shakllantiriladi. Ushbu vaziyatni kelib chiqishiga sabab bo'luvchi zararli odatlar, ularga yo'liqtiruvchi omillar ushbu organayzer asosida tahlil qilinadi.

"Nima uchun" sxemasi

"Nima uchun" sxemasi asosida ishlash uchun yo'riqnoma.


Nima uchun sxemasi mavjud muammoni keltirib chiqargan sabablarini aniqlashga yordam beruvchi sxemadir. Sabab-oqibat qonuniga asosan muammoni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlamay turib muammoni hal etish qiyin. Muammoning yechimini topish uchun uni keltirib chiqargan sabablarini aniqlash va yo'qotish talab etiladi. Talabalarda sabab-oqibat qonuniyati asosida fikr yuritishni tarbiyalash muhim. Ushbu sxema talabalarda aynan ana shu xususiyatni

rivojlantiradi. Talabalarda tizimli, ijodiy, tahiliy mushohada qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Nima uchun? So'rog'i bilan strelka chiziladi va savolga javob yoziladi. Qayta-qayta «nima uchun» degan savol berib boriladi 1-bosqich muammoni keltirib chiqargan ildiz yashirin sababi topilguncha davom ettiriladi.



“Nima uchun” sxematik metodi uchun na'muna

Aхлоqiy madaniyat jarayonini samaradorligini oshirish muammosi



“Qanday” diagrammasi

“Qanday?” ierarxik diagrammasi orqali yuqoridagi muammoning 3 bosqichlari amalga oshiriladi:

Vaziyatdan chiqishning qonuniy va ma'naviy asoslari? Qanday? Muammoning hal qilinishi yo'llari? Qanday?

«Qanday?» ierarxik diagrammasi asosida faoliyatni tashkil etish qoidalari:


Vujudga kelgan muammoni sababini aniqlash zarur, ammo ana shu muammoni qanday yo'llar bilan hal etish mumkin degan savolga javob berishni o'rganish muhim vazifalardan biridir; «Qanday?» ierarxik diagrammasi ana shunday hollarda

samarali natija beradi: «Qanday?» ierarxik diagrammasi ¹ muammo haqida butunligicha umumiy tasavvurga ega bo'lishga imkon beradigan savollarning mantiqiyzanjiri ko'rinishida namoyon bo'ladi; Ketma-ket ravishda «Qanday?» savolini qo'yish orqali siz faqat muammoni hal etishning barcha imkoniyatlarini tadqiq etibgina qolmay, balki ularni amalga oshirish usullarini ham o'rganasiz.

Diagramma strategik darajadagi savol bilan ish boshlaydi. Muammoni hal etishning quyi darajasi birinchi navbatdagi harakatlar ro'yxatiga mos bo'ladi. O'ylamay, baholamay va ularni o'zaro solishtirmay tezlikda barcha g'oyalarni yozish lozim bo'ladi. Diagramma hech qachon tugallanmaydi: unga yangi g'oyalarni kiritish mumkin bo'ladi. Agarda savol sxemada bir qancha «shoxlar»da qaytarilsa, demak u nisbatan muhimdir. U muammoni hal etishning muhim qadami bo'lishi kerak. Yangi g'oyalarni qanday grafik ko'rinishda qayd etishni o'zingiz tanlab oling (daraxt, kaskad va boshq.) Bunda muammo shajarasi ko'z oldingizda namoyon bo'ladi. To'g'ri mulohaza qilish va xulosalar chiqarish orqali muammoning echimini topish yengil kechadi. Ushbu o'quv jarayonini tashkil etish uchun havola etilgan texnologik treninglarni xuddi shu tartibda, o'tkazishlari shart emas, har qaysi o'qituvchi bu treninglarni umumiy shaklni olgan holda o'zlarining dars texnologiyalarini yaratishlari, berilgan treninglarni to'liq yoki ularning ba'zi bir bosqichlari, elementlarini ishlatishlari mumkin.³⁴

³⁴ L. V. Golish. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. Toshkent 2014. OOO. "QVERT PRINT." 88 –bet.

«Qanday?» ierarxik diagrammasiga na'muna



Ma'lumki, keyingi yillarda butun dunyoda jamiyat taraqqiyotida axborotning muhim o'rnini anglash yuzaga keldi. Ko'pgina ilmiy tadqiqotlar axborot resurslari, axborotlashuv, axborot madaniyati kabi hodisalarni ijtimoiy madaniy kontekstda o'rganishga bag'ishlanmoqda. Xotin-qizlar uchun jamiyatimizda yaratilayotgan hozirgi imkoniyatlar va olib borilayotgan ishlar yaqin

tarixdagi vaziyat bilan solishtirib bo'lmashligini hisobga olsak, mavjud holat ko'z oldimizda yanada yorqinroq namoyon bo'ladi. Axborot omilini esa o'sha davr bilan qiyoslashning iloji ham yo'q. Chunki, bugungi axborot asridagi vujudga kelgan shart-sharoitlar xotin- qizlarning siyosiy ijtimoiylashuvining jadallik bilan yuz berishi uchun kafolatdir.

Xotin-qizlarni hududiy jihatdan keng qamrovli axborot bilan sifatli ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratish zarur. Mamlakatda olib borilayotgan siyosiy o'zgarishlar va islohatlardan xotin- qizlarni ko'proq boxabar qiladigan siyosiy mavzularni yoritishga qaratilgan matbuot va axborot vositalarining mamlakatning barcha hududlarigacha yetib bormayotganligi, shuningdek, yetib borgan axborotning xotin-qizlar tomonidan o'zlashtirilishi masalalari ham qiyinligi, ularning alohida targ'ib va tashviq qilinmasligi kabi holatlar bugungi kunda hech birimizga sir emas. Shu nuqtai-nazardan ham, avvalo, aholining sifatli axborot bilan ta'minlanishi masalalariga jiddiy e'tibor berish zarur. Dolzarb masalalarning, mavzularning ommaviy axborot vositalarida yoritilishidagi ba'zi bir kamchiliklarni bartaraf etish ham muhim vazifalardan biridir. Xotin-qizlarning axborotga, voqeliklarga yondashishida, avvalo, uni qiziqarli tarzda tayorlash "axborot iste'molchisi hisoblangan xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy saviyasini oshirish borasidagi materiallarni imkon qadar ko'proq yoritish, barcha matbuotlarga bugungi kundagi "o'ziga xoslik" hisoblangan o'xshashliklarni ular faoliyatidan bartaraf etish axborot siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylanmog'i lozim. Misol uchun, biror bir gazetada bosilgan xabar, boshqa partiyaviy va hukumat gazetalarida ham bosiladi. Bunda partiyaviy yondashuvlar yoki partiyaning o'z pozitsiyasi ham aks etishi, xotin-qizlarning bu masalaga yondashuvi ham muhim o'rin tutadi. Bu borada partiyaviy nashrlarning yanada faolroq bo'lishi talab etiladi.

Matbuot sohasi xodimlarining kasbiy mahoratini oshirish zarur. Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga xizmat qiladigan materiallarni yaratish, ularni "iste'molchilar"ga yetkazib berishda, avvalo, mavzuni tanlay bilish, masalaning nechog'li dolzarbligini aniqlash, uning ijtimoiy-siyosiy

ahamiyatini anglash, xotin-qizlarning faolligini o'zida nechog'li aks ettirishini oldindan ko'ra bilish va eng muhimi, mamlakatda olib borilayotgan siyosatni tushinish kabi zaruriyatlarni jurnalist professional tarzda yoritib oladigan bo'lishi zamon talabidir. Shu o'rinda ommaviy axborot vositalarida "Ayol-tadbirkor", "Ayol- rahbar", "Ayol- siyosatchi" kabi mavzularda turkum maqolalarni berib borish maqsadga muvofiqdir. Mamlakatimizda axborotni o'rganish va uni tahlil qilish borasida monitoringlar o'tkazishni yanada kuchaytirish va unda mavzularning bugungi hayotga nechog'li mosligini, amaliy ahamiyatini va natijalarini doimiy ravishda o'rganib boradigan faoliyatni yo'lga qo'yish masalasi nihoyatda muhim. Chunki, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy saviyasini o'rganish, ommaviy axborot vositalari ta'sirini va samaradorligini tahlil qilish, bu borada sotsiologik tahlillar olib borish masalasi axborot davrida eng katta natija beradigan omillardan hisoblanadi. Misol uchun, xotin-qizlar hayoti va faoliyatiga oid mavzular, ularning siyosatga qiziqishi va siyosiy bilimdonligi, bu holatning zarurligi va boshqa ko'plab qiziqarli maqolalar, tahliliy materiallar bosiladigan matbuotning bozori chaqqon bo'lishi bilan bir qatorda kutilgan natijani berishi mumkin. Gazeta yoki jurnalning sotilishi yoki obunasiga qarab ham qaysi mavzular ko'proq qiziqarli yoki matbuotning reytingi qanday darajada ekanligini aniqlash mumkin. Bunday monitoringning olib borilishi esa matbuotning marketinggiga ham o'ziga xos tarzda ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA

Yurtboshimizning “Biz dunyo go’zalligini, hayot falsafasini va ma’no- mazmunini avvalambor ayol siyomosida, uning fidoyi qalb, vafo va sadoqatida ko’ramiz, his etamiz”³⁵ deydilar. Aynan shu e’tirofdan ham yurtimizda xotin-qizlar faoliyatiga, ularning jamiyatdagi ahamiyatini oshirishga qaratilgan e’tibor katta ekanligini ko’rishimiz mumkin. Bugungi kunda ham Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini muhofaza qilish, turmush sharoitini yaxshilash, salomatligini mustahkamlash va ma’naviyatini boyitish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, yurtimizda izchillik bilan amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida respublika davlat boshqaruv organlari tomonidan ayollar turmush sharoitini yaxshilash, davlat va jamiyat qurilishidagi faolligini oshirish, huquqiy, iqtisodiy, ma’naviy manfaatlarini davlat darajasida himoya qilish, hayotimizning barcha jabhalarida ularning ishtirokini kuchaytirish, salomatligini mustahkamlash borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kun o‘zbek ayoli o‘zini har jabhada ko‘rsata olyapti va buning uchun unga yetarlicha shart-sharoit yaratilib berilmoqda. Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng 13 nafar xotin-qizlar “O‘zbekiston Qahramoni” unvoniga sazovor bo‘ldi. Albatta, buning ostida katta mehnat va ulkan mashaqqatlar yotadi. Ushbu o‘rinda yurtboshimiz shunday deydilar: “Lekin menga buyursa, ham davlat xizmatini, ham oila va ro‘zg‘or yumushlarini, ham farzand tarbiyasini qoyil qilib bajarib kelayotgan barcha-barcha ayollarni qahramon deb aytgan bo‘lardim ‘’.

Hech kimga sir emaski, bugun mamlakatimizda axborot texnologiyalari qo‘llanilmayotgan birorta soha yo‘q. Hayotimizning iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa jabhalarda, ayniqsa xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeini mustahkamlash borasida hamda milliy salohiyatni yanada oshirish maqsadida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarni jadallashtirish jarayonida ularni keng

³⁵“Ayol yaratgan dunyo”, “Sharq” nashriyoti, Toshkent 2005 y.

miqyosda o'zlashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, davlatimiz rahbarining shu yil 21-martda qabul qilingan "Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida davlat organlarining rasmiy saytlarini rivojlantirish, samaradorligini oshirish va axborot xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq ko'plab vazifalar belgilangan. Ushbu qarorga muvofiq, respublikamizda xotin-qizlar tomonidan ham ushbu vazifalar ijrosini ta'minlash borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, xotin-qizlar uchun har bir jabhada, xususan, tashkilotlar, oliy va o'rta ta'lim maskanlarida axborot markazlari tashkil etilib, veb-saytlarning yangi, takomillashtirilgan variantlari yaratildi. Ushbu bitirub malakaviy ishlar jarayonida xotin-qizlarning siyosiy-huquqiy, madaniy-ma'rifiy salohiyatlarini oshirishga yo'naltirilgan quyidagi internet sayt va portallarini o'rganib chiqdim. Jumladan "Ayollar va bolalar reproduktiv salomatligi va sog'lom turmush tarziga bag'ishlangan www.ayol.uz sayti, o'zbek tilidagi birinchi onalar va bolalar uchun sayt www.farzand.uz sayti, ayollar uchun www.muslima.uz sayti, O'zbekiston tibbiyot portal www.med.uz, pazandalik haqida hikoyalar, tarixlar va retseptlar www.azu.uz sayti, Oila sir sinoatiga oid forum-meno'zbek farzandiman www.uzbaby.uz saytlari bularga misol bo'la oladi.

Izchil davom etayotgan tub o'zgarishlarning samaradorligi ko'p jihatdan salohiyatli yosh avlodni tarbiyalash, har tomonlama bilimli, tashabbuskor va malakali mutaxassislar tayyorlashga bog'liqdir. Ushbu o'rinda esa asosiy masala yana oilaga borib taqaladi. Oilada, ayol ongida zamonaviy texnologiyalar haqidagi tasavvurlarni uyg'otish, ularning texnologiyalardan foydalanish malakalarini oshirish hamda ommaviy axborot vositalaridagi ma'lumotlarni to'g'ri anglashini ta'minlash juda muhimdir. Shu sababli Prezidentimizning "Barkamol avlod yili" Davlat dasturi to'g'risidagi qarorda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli va formatli telekommunikatsiya aloqa vositalari hamda internet tizimini yanada rivojlantirish, ularni har bir oila hayotiga tadbiq etish va keng o'zlashtirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan. Ushbu hujjatning

ijrosini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarda xotin-qizlarning hissalarini ham ulkan ahamiyatga ega bo'lmoqda³⁶.

Axborot texnologiyalari shiddat bilan rivojlanayotgan bugungi kunda mamlakatimizda xotin-qizlarni har tomonlama yetuk bo'lishlari ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lmoqda. Albatta, xotin-qizlarning zamonaviy texnologiyalardan foydalanish darajasini oshirish muhimdir, ammo har bir narsaning ijobiy va salbiy jihatlari mavjuddir. Zero, bugungi kunda global tarmoqdagi hamma ma'lumotlar ham sifatli va ishonchli emas. Internet saytlarida har xil nokerak va zararli g'oyalar behisob ekanligini ham nazardan qochirmaslik kerak. Barkamol avlodni tarbiyalashdek ulkan vazifa aynan ayollar zimmasiga yuklanganligini hisobga olib, ushbu xavfdan xotin-qizlarimizni to'la xabardor etishimiz zarurdir.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, mamlakatimizda izchillik bilan amalga oshirilayotgan yangilanish va islohotlar samaralarini xotin-qizlarga yetkazish, ularning huquqiy, tibbiy-ijtimoiy bilimini boyitishda zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan oqilona foydalanish muhim ahamiyatga ega. Zero, "Jamiyatning demokratik o'zgarish yo'lidan nechog'li ilgari ketgani shu jamiyatning ayollarga bo'lgan munosabati uning madaniy-ma'naviy saviyasini belgilaydi", deydi yurtboshimiz Islom Karimov. Umuman olganda, Prezident I. Karimovning ayollar ravnaqi uchun qilayotgan juda katta ishlariga qaramasdan ba'zi o'zbek ayollarining hozirgi ahvoli zamon talabi darajasidan ancha yiroq bo'lib qolmoqda. Respublikada faoliyat ko'rsatayotgan xotin-qizlar qo'mitalari, ayollar uyushmalari, markazlari va nodavlat jamgarmalari faoliyati bilan tanishish, shuningdek, «Sog'lom avlod» hamda «Ona va bola» Davlat dasturlarining mazmunidan kelib chiqqan holda shu xulosaga keldikki, ayni vaqtda xotin-qizlar faolligini oshirish borasida bir qator muammolar ham mavjud. Bular:

-muayyan ijtimoiy-iqtisodiy tuzumdan yangicha, demokratik boshqaruvga o'tayotgan mamlakat va jamiyat uchun ayollar muammosini demokratik va

³⁶ www.government.uz.

insonparvarlik g'oyalari nuqtai nazaridan hal etish bo'yicha ilmiy majmualarning mavjud emasligi;

-ayollar ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan axborotlar va ishlanmalarning etarli emasligi;

- xotin-qizlarning jadal faoliyatini muvofiqlashtirish sohasida bir qator kamchiliklarning mavjudligi.

Jamiyatimizda ayollar faolligini turli pedagogik va kommunikatsion texnologiyalar orqali oshirish natijasida quyidagi yutuqlarga erishish mumkin:

1. Ayollarning sihat-salomatligi mustahkamlanadi;
2. Ayollarning oiladagi va jamiyatdagi mavqei yanada mustahkamlanadi;
3. Gender muammosining asta-sekin yechim topishiga olib keladi;
4. Ayollarning mehnat faoliyati faollashadi;
5. Ayollarni kamsitish va ezish holatlari kamayib boradi;
6. Ayollarning turli xil diniy oqimlarga kirishi, terrorda ishtiroki kamayadi;
7. Ayollarning o'rtacha umri asta-sekin ortib boradi;
8. Oilada psixologik muhit yaxshilanadi, bola tarbiyasiga e'tibor ortadi, er-xotin munosabati yaxshilanadi;
9. Ayollar o'rtasida ishsizlik, o'z joniga qasd qilish va boshqa salbiy holatlar kamayadi;
10. Ayollar o'rtasida ishbilarmonlar, ziyolilar ko'payib boradi;
11. Ayollarning milliy istiqlol g'oyasiga va milliy mafkuraga nisbatan hurmati ortib boradi;
12. Ayollarning ma'naviy, ma'rifiy, siyosiy vamadaniy saviyasi oshib boradi;
13. Ayollarimizni sog'lom, madaniyatli, ma'rifatli, ilmiy, ishbilarmon, vatanparvar qilib tarbiyalashning juda katta ijobiy oqibatlari kuzatiladi.

Jamiyatda xotin-qizlarning faolligi oshishi natijasida, avvalo, barkamol, sog'lom, mehnatsevar, vatanparvar, bilimli avlod shakllanadi. Mamlakatda

siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy barqarorlik vujudga keladi. Mamlakatimizning dunyo miqyosidagi mavqeyi yanada oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

Qonunchilik hujjatlari:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. -Toshkent. O'zbekiston, 2012.11 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 25 mayda «O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-3434-sonli Farmoni
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 9 mart O'zbekiston xotin-qizlariga 8 mart tabrigi.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999 yil 10 iyun, "Zulfiya" nomidagi davlat mukofotini ta'sis etish bo'yicha takliflarni qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi PF-2326-sonli farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 27 fevraldagi PF-4087-sonli Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 yil 2 martdagi «O'zbekiston Respublikasi davlat va ijtimoiy qurilishida xotin-qizlarning rolini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni

Prezident I. A. Karimov asarlari:

1. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. - T.: O'zbekiston, 1996.
2. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.2 - T.: O'zbekiston, 1996.
3. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3 - T.: O'zbekiston, 1996.
4. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi. T.5 - T.: O'zbekiston, 1997

5. Karimov I.A. Xavsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6 - T.: O'zbekiston, 1998
6. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan ko'ramiz. T.7 - T.: O'zbekiston, 1999.
7. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. T.8 - T.: O'zbekiston, 2000.
8. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. - T.: O'zbekiston, 2001.
9. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish islohotlarni chuqurlashtirish. T.: O'zbekiston, 2007.
10. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. Toshkent. 2008.
11. Karimov I.A. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.: O'zbekiston, 2009.
12. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz vatan taraqqiyoti va xalq farovonligini yanada yuksaltirishdir. T.: O'zbekiston, 2010.
13. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1 - T.: O'zbekiston, 1996.
14. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.2 - T.: O'zbekiston, 1996.
15. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3 - T.: O'zbekiston, 1996.
16. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi. T.5 - T.: O'zbekiston, 1997.
17. Karimov I.A. Xavsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6 - T.: O'zbekiston, 1998.
18. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan ko'ramiz. T.7 - T.: O'zbekiston, 1999.
19. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. T.8 - T.: O'zbekiston, 2000.

20. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. - T.: O'zbekiston, 2001.

21. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish islohotlarni chuqurlashtirish. T.: O'zbekiston, 2007.

22. Karimov I.A. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.: O'zbekiston, 2009.

23. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz vatan taraqqiyoti va xalq farovonligini yanada yuksaltirishdir. T.: O'zbekiston, 2010.

24. Karimov I.A.

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati ni rivojlantirish konsepsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2010.

25. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. – Toshkent: O'zbekiston, 1999.

Darslik va o'quv qo'llanmalar:

1. Abdullaeva YA.A. XIX asrning oxiri va XX asrda Qoraqalpog'istonda Xotin-qizlar masalasi (ijtimoiy-siyosiy aspekt): Tarix fan. d-ri. ... dis. – T., 2005. – 369 b.

2. Azimova M. M. Quqbonova N. M. Yosh avlodni tarbiyalashda xotin-qizlarning roli.

3. Akbarov I. A, Qosimov K.L. yoshlarni milliy manfaatlar ruhida tarbiyalashda milliy o'zlikni anglash tuyg'usini shakllantirishning ahamiyati.

4. Azimova M.M, Qurbonova N.M. Yosh avlodni tarbiyalashda xotin-qizlarning roli.

5. Axrorova S.A. O'zbekistonda ayollar ijtimoiy faolligini oshirish omillari: Falsafa fan. nomz. ... dis. avtoref. – Toshkent, 2005. – 19 b.

6. Ayolga ehtirom: to'plam. – Toshkent: O'zbekiston, 1999. 17 b.

7. "Ayol yaratgan dunyo", "Sharq" nashriyoti, Toshkent 2005 y.

8. "Ayol- jamiyat ko'zgusi". Respublika ilmiy-nazariy va amaliy anjumanining maqolqlari to'plami.

9. Bositxonova Z. Saodatli yurtning ayollari ham baxtlidir. 2014 yil 5 mart.
10. Jo'raeva N.D. O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida xotin-qizlarning o'rni (XX asrning 20-30 yillari): Tarix fan. nomz. ... dis. avtoref. – Toshkent, 2004. – 33 b.
11. G'aniyeva G. O'zbekistonda xotin-qizlar masalasi: yangicha yondashuv, muammolar va yechimlar. (1991-2005yy). Tarix fan. nomz. ... dis. avtoref. – Toshkent, 2006. – 33 b.
12. “Ayol- jamiyat ko'zgusi”. Respublika ilmiy-nazariy va amaliy anjumanining maqolqlari to'plami. 47 b.
13. “Intellektual salohiyatli xotin-qizlar ijtimoiy faolligi-jamiyat taraqqiyotini ta'minlashning muhim omili”. O'zbekiston Respublikasi xotin-qizlar “OLIMA” uyushmasi. 36-37 b.
14. Matkarimova G.A. Xalqaro va milliy huquqda ayollarning gender va reproduktiv huquqlari: Yurid. fan. d-ri ... dis. – Toshkent, 2002. – 291 b.
15. Nasrullaeva X. O'zbekistonda Xotin-qizlar ijtimoiylashuvi jarayonining falsafiy tahlili: Falsafa fan. nomz. ... dis. – Toshkent, 2000. – 137 b.
16. Nishonova O.J. O'zbek ayollari etnomadaniyati: genezisi, xususiyatlari, muammolari (falsafiy-madaniy yondashuv): Falsafa fan. nomz. ... dis. avtoref. – Toshkent, 2005. – 21 b.
17. Primova F.A. Oilaviy munosabatlarni shakllantirishda milliy va diniy qadriyatlarning o'rni. Fals.fan.nom. ... dis. avtoref. – Toshkent: 1999. – 23 b.
18. Safaeva S. X. Ayollar masalasi: umumijtimoiy va milliy jihatlar: Falsafa fan. nomz. ... dis. – Toshkent, 2002. – 177 b.
19. Sodiqova T. Hazrati ayol.T.,G'. G'ulom nomidagi adabiyot va sa'nat nashriyoti, 1999. 19 b.
20. Sultonova E. Ayol davlatning rivojlanish strategiyasida (Global muammo sifatida): Siyosiy fanlar d-ri ... dis. – Toshkent, 2005. – 265 b.
21. Yoqubova M.I. Jamiyat axborotlashuvining falsafiy asoslari. – Fals.fan. nomz. dis. -Toshkent.: Universitet, 2006.–130 b.

22. Yoqubova M.I. Axborot texnologiyalarining falsafiy asoslari. T.Universitet, 2008.-160 b.

23. Munsurov SH., Buronov K. O‘zbekistonning milliy istiqlol mafkurasi


24. Golish L. V. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. OOO. “QVERT PRINT.” Toshkent 2014. 88-B


Internet manba

1. www.arxiv.uz Saidov. “Ayolga e’tibor – millatga e’tibor”.
2. www.Google.uz
3. www.Ziyonet.uz
4. www.lex.uz

ILOVALAR


Ilova№ 1





xotin-qizlar masalalari bilan shug'ullanadigan nodavlat notijorat tashkilotlar

- ijtimoiy siyosiy faollikni oshirish
- tadbirkorlik va hunarmandchilikka keng jalb etish
- ijtimoiy himoyalash
- sog'lom turmush tarzini targ'ib etish



Ayolning jamiyatdagi o'rnini yanada mustahkamlash, uning faolligini oshirishda quyidagilar muhimdir:

-Fuqarolik faoliyatini doimiy qo'llab-quvvatlab borilishi;

-Ularda mustaqillik va milliy istiqlol g'oyalariga sadoqat tuyg'usini shakllantirish;

-Chuqur bilim va intellektual salohiyatning tarkib toptirilishi, milliy qadryatlar va urf-odatlarining ular ongiga singdirilishi;

-bozor iqtisodiyoti sharoitida ishbilarmonlik, tadbirkorlik kabi hislatlarning barqarorlashuvi .

Poytaxtimizda sog'lom hayot tarzi, farzand tarbiyasi, reproduktiv yoshdagi xotin-qizlarning tibbiy savodxonligiga bag'ishlangan turli anjuman, bahs-munozaralarga boy davra suhbatlarida ko'tarilayotgan turli masalalarga oid ilg'or g'oya va texnologiyalar respublikamizning chekka hududlarigacha yetib borymoqdami?

Yetib borgan taqdirda ham xotin qizlar tomonidan ma'lumotlarni qay tarzda o'zlashtirilishi nazoratga olinganmi? Bu savollarga yechim topish uchun pedagogik texnologiyalar imkoniyatlariga suyanamiz:



**KASKAD
USULI**

**AQLIY HUJUM
USULI**

**NIMA UCHUN
SXEMASI**


**QANDAY
DIAGRAMMASI**

"NIMA UCHUN" SXEMASI

Talaba zararli odatlar ta'siriga tushib qoldi...
Nima uchun ?



“NIMA UCHUN” SXEMASI UCHUN NAMUNA





XULOSA

Ushbu bitiruv malakaviy ishim jarayonida xotin-qizlarning siyosiy-huquqiy, madaniy-ma'rifiy salohiyatlarini oshirishga yo'naltirilgan quyidagi internet sayt va portallarini o'rganib chiqdim. Jumladan "Ayollar va bolalar reproduktiv salomatligi va sog'lom turmush tarziga bag'ishlangan www.ayol.uz sayti , o'zbek tilidagi birinchi onalar va bolalar uchun sayt www.farzand.uz sayti, ayollar uchun www.muslima.uz sayti, O'zbekiston tibbiyot portal www.med.uz , pazandalik haqida hikoyalar, tarixlar va retseptlar www.azu.uz sayti, Oila sir sanoatiga oid forum-meno'zbek farzandiman www.uzbaby.uz saytlari bularga misol bo'la oladi.

Jamiyatimizda ayollar faolligini turli pedagogik va kommunikatsion texnologiyalar orqali oshirish natijasida quyidagi yutuqlarga erishish mumkin:

1. Ayollarning sihat-salomatligi mustahkamlanadi;
2. Ayollarning oiladagi va jamiyatdagi mavqei yanada mustahkamlanadi;
3. Gender muammosining asta-sekin yechim topishiga olib keladi;
4. Ayollarning mehnat faoliyati faollashadi;
5. Ayollarni kamsitish va ezish holatlari kamayib boradi;
6. Ayollarning turli xil diniy oqimlarga kirishi, terrorda ishtiroki kamayadi;
7. Ayollarning o'rtacha umri asta-sekin ortib boradi;
8. Oilada psixologik muhit yaxshilanadi, bola tarbiyasiga e'tibor ortadi, er-xotin munosabati yaxshilanadi;
9. Ayollar o'rtasida ishsizlik, o'z joniga qasd qilish va boshqa salbiy holatlar kamayadi;
10. Ayollar o'rtasida ishbilarmonlar, ziyolilar ko'payib boradi;
11. Ayollarning milliy istiqlol g'oyasiga va milliy mafkuraga nisbatan hurmati ortib boradi;
12. Ayollarning ma'naviy, ma'rifiy, siyosiy va madaniy saviyasi oshib boradi;
13. Ayollarimizni sog'lom, madaniyatli, ma'rifatli, ilmiy, ishbilarmon, vatanparvar qilib tarbiyalashning juda katta ijobiy oqibatlari kuzatiladi.